

378  
D 36



T.E.DELOV, D.A. ZARIPOVA, G.R.HAMRAYEVA

# TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKASIYALARINI  
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYHLARI UNIVERSITETI

AKT SOHASIDA KASB TA'LIMI FAKULTETI

Axborot ta'lim texnologiyalari  
kafedrası

T.E.DELOV, D.A. ZARIPOVA, G.R.HAMRAYEVA

# TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH

(O'quv qo'llanma)

Toshkent – 2020

**UO‘K: 378.14(075.8)**

**KBK: 74.58**

**D: 58**

**Mualliflar: T.E.Delov, D.A.Zaripova, G.R.Hamrayeva. Ta‘lim tizimini boshqarish. (O‘quv qo‘llanma). – T.: «Aloqachi», 2020. –100 b.**

**ISBN 978–9943–6394–2–3**

Mazkur o‘quv qo‘llanma bakalavriatura AKT sohasida kasb ta‘limi yo‘nalishlarida o‘qitiladigan “Ta‘lim tizimini boshqarish” o‘quv fani bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, unda “Ta‘lim tizimini boshqarish” mazmun mohiyati, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari turlari, ularning ilmiy nazariy asoslari, asosiy tamoyillari, maqsad va vazifalari bayon etilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma “Ta‘lim tizimini boshqarish” o‘quv fani o‘qitiladigan ta‘lim yo‘nalishlari talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashga mo‘ljallangan bo‘lib, talabalarning kasbiy pedagogik, metodik tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma universitetning AKT sohasida kasb ta‘limi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan.

**UO‘K: 378.14(075.8)**

**KBK: 74.58**

**Taqrizchilar:**

**R.R. Gaipnazarov – p.f.n., dosent;**

**Sh.X.Pozilova – p.f.n. (PhD) dosent.**

**Mas‘ul muxarrir:**

**S.Gayibnazarov**

O‘quv qo‘llanma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti. Ilmiy-uslubiy Kengashining qarori bilan chop etishgatafsiya etildi.

**ISBN 978–9943–6394–2–3**

**© «Aloqachi» nashriyoti, 2020.**

*«Noqobil o‘qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo‘yadi, yaxshisi esa uni topishga o‘rgatadi».*

**A.F.Disterveg – nemis pedagogi**

## **KIRISH**

O‘zining mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘lini tanlab olgan O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasini ham sobitqadamlik bilan isloh qilib bormoqda. Ayniqsa, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilingach, bu boradagi ishlar keng ko‘lamga erishdi. Ushbu hujjatlarning talablari asosida bilim va kasb-hunar egallashga bo‘lgan e’tibor kuchayib ketdi. Shu tufayli ta’lim-tarbiya tizimiga yangicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar kirib kela boshladi. Bu yondashuvlar, o‘z navbatida, o‘quv jarayonining turli tashkiliy va metodik jamg‘armalarida muayyan ijobiy o‘zgarishlarni sodir etadi, albatta. Ularning juda ko‘pchiligi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat bilan uzviy bog‘liq o‘zgarishlardir.

O‘quv faoliyati, bu – keng ma’noda inson faoliyatining muayyan maqsadlar yo‘nalishida namoyon bo‘lishidir. Bu faoliyat faqat insoniyat jamiyatida amalga oshirilishi sababli, u nafaqat har bir insonning, balki butun jamiyatning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladi.

Demak, o‘quv faoliyati inson faoliyatining boshqa turlari singari, kishilik jamiyatiga xos bo‘lgan obyektiv hodisa sifatida amal qiladi. Jamiyatning o‘zi murakkab va ziddiyatli o‘zgarishlarga uchrab turar ekan, o‘quv faoliyati ham insoniyat taraqqiyotining turli rivojlanish bosqichlarida har xil muayyan shakllarga ega bo‘ladi.

Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonida quyidagilar ko‘rsatilib o‘tildi<sup>1</sup>.

- oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish;

- xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2019-yil 8-oktyabr.

yoʻnaltirilgan taʼlimdan amaliy koʻnikmalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan taʼlim tizimiga bosqichma-bosqich oʻtish;

- oliy taʼlim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qoʻshadigan, mehnat bozorida oʻz oʻrnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yoʻlga qoʻyish;

- oliy taʼlim muassasalarining akademik mustaqilligini taʼminlash;

- oliy taʼlim muassasalarida taʼlim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bogʻliqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish.

Oliy taʼlim muassasalarini moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish va mutaxassislar sifatini tubdan yaxshilash zarur.

Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini oʻrganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni taʼminlamoqda.

Uzluksiz taʼlim tizimida oliy taʼlim alohida oʻrin egallaydi.

Oliy taʼlim muassasalari talabalari kasbiy tayyorgarligi sifatini taʼminlashda ularni innovatsion taʼlim texnologiyalari, oʻqitishning yangi metod va vositalari, kasbiy kompetentlik sifatleri va kreativ qobiliyat mohiyati bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Taʼlim tizimini boshqarishni - oʻqitish jarayonlarini optimal tashkil etishdir.

Mazkur qoʻllanmada yuqorida taʼkidlab oʻtilgan muammolarni hal etishning ayrim jihatlari, pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratning ahamiyati hamda ular bilan bogʻliq jarayonlarni oʻrganishning metodik asoslari bayon qilingan.

Ushbu oʻquv qoʻllanma universitetning AKT sohasida kasb taʼlimi yoʻnalishida tahsil olayotgan talabalar uchun moʻljallangan. Undan AKT sohasida kasb taʼlimi yoʻnalishidagi professor-oʻqituvchilari, ilmiy izlanuvchilar, pedagogika va oʻqitish metodikasi masalalari bilan shugʻullanuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

*“Yana bir muammoni hal etish o‘ta muhim hisoblanadi:  
bu pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining  
professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir.  
Bu borada ta‘lim olish, ma‘naviy ma‘rifiy kamolot masalalari  
va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga  
faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur”*

*Sh.M.Mirziyoev.*

## **1 - BOB. “TA‘LIM TIZIMINI BOSHQARISH” FANINIG NAZARIY ASOSALRI**

### **1.1. O‘zbekistonda ta‘lim tizimi va uni tuzilishi**

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini bosqichma-bosqich va muvaffaqiyatli amalga oshirish ko‘p jihatdan o‘qituvchi faoliyati, uning kasbiy nufuzini oshirish bilan bog‘liqdir. Shunday ekan, sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish uzluksiz ta‘lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligiga, uning yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liqdir.

O‘qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig‘ini bajaradi, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o‘qituvchi muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim. Shunday ekan, o‘qituvchi mustaqillik g‘oyasiga e‘tiqodli, har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkurga ega, kasbiga tegishli ma‘lumoti bor, ya‘ni o‘z fanining chuqur bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi, pedagogik-psixologik va uslubiy bilim hamda malakalarni egallagan bo‘lishi hamda turli pedagogik vazifalarni tezda yechishi, vaziyatlarni sezishi, o‘rganishi va baholay olishi kerak. U pedagogik ta‘sir ko‘rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi qonunga muvofiq tashkil etildi va nazorat qilinadi. Konstitutsiyaning 18, 41-moddalarida ta‘kidlanganidek jumhuriyatimizda yashovchi barcha fuqorolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat‘iy nazar bilim olish huquqiga ega.

Sharq xalqlari, xususan o‘zbek xalqi qadimdan ilmga, ma‘rifatga chanqoq ekanligi ma‘lum. Buni o‘zbek xalqining tarixi bilan qiziqqan

tarixshunoslarning esdaliklari, ilmiy mulohazalarida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Jumladan: “Xitoy ta’rifchisi (Syuan, Szyan, 630 yil) ning ma’lumotiga ko‘ra o‘sha zamonda O‘rta Osiyoda bola besh to‘lgach, uni o‘qish, yozishga va hisobga o‘rgatganlar. Eronda savodlilar kamdan-kam bo‘lgani holda, O‘rta Osiyoda hamma yoshlarni savodga o‘rgatish odat bo‘lgan” (40 bet. O‘zbekiston xalq pedagogikasi. 1973 yil).

Umumiy ta’lim maktablari, o‘rta va oliy ta’limda o‘quvchilarga davlat tomonidan g‘amxo‘rlik ko‘rsatiladi.

Yuqorida asoslangan holda quyidagi ***“Faqatgina chinakam ma’rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so‘z bilan aytganda, o‘zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib, obro‘li o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin”***, - fikri asosida faoliyatlarini tashkil etmoqliklarini talab etadi. O‘zbekiston respublikasi ta’lim tizimi ana shu g‘oyani amalga tadbqiq etishga qaratmog‘i darkor.

Ota-bobolarimizning ***“O‘tmishni unutmagan kelajagi bo‘lmaydi”*** degan hikmatli gap bor. Biz tariximizni qanchalik chuqur o‘rgansak, madaniy merosimizga, qadriyat va an’analarimizga qaratsak, kelajak avlodga shunchalik to‘g‘ri ta’lim bergan bo‘lamiz. Sharqda, xususan O‘zbekistonda ta’lim-tarbiyaga juda katta e’tibor berilgan edi. Bolalarni kichik yoshidan ilmga qiziqtirish, axloqan pok, vijdonli, mehr-shafqatli qilib voyaga yetkazish, el-yurtga nafi tegadigan farzand qilib o‘stirish masalalariga ota-bobolarimiz jiddiy e’tibor qilishgan.


Tarixiy manbalardan ma’lumki, Markaziy Osiyo hududidagi madrasa va masjidlarda, eski usuldagi maktablarda diniy ta’lim-tarbiya, yetakchi o‘rinni egallagan. Bu bejiz emas albatta. Inson, ayniqsa, yosh bola yuksak axloq va odob mezonini bilmay va uni puxta egallamay turib, boshqa ilmlarni egallashi qiyin. Bu asrlar davomida ota-bobolarimiz tomonidan qancha-qancha tajribalar asosida sinalgan haqiqatdir. Shu o‘rinda eski o‘quv yurtlarida tillar o‘rganishga bo‘lgan e’tiborni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Al-Xorazmiy, Al-Zamaxshariy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, A.Navoiy, Muhammad Solih, Ogohiy kabi ulug‘ zotlar arab, fors va

boshqa tillarni qunt bilan o'rganishgan va o'sha tillarda erkin ijod qilishgan.

Ta'lim tizimi deb muayyan mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi hamda ma'lum bir qoidalar asosida tashkil etilgan barcha ta'lim-tarbiya muassasalarining tuzilishiga aytiladi. O'zbekistonda ta'lim tizimi mamlakatning barcha fuqarolariga ta'lim, tarbiya berish kasb-hunar o'rgatishning asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan.

Ta'lim tizimi asosida barcha fuqarolar o'zlarining xohishlariga qarab, umumiy, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim va mutaxassisliklarni egallashlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

### **O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:**



1.1 – rasm

### **O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir**

1. Barcha ta'lim muassasalari davlat ta'lim standartlari asosida tashkil etiladi va nazorat qilinadi. Ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim



dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat muassasalari shaklida olib boriladi. Davlat muassasalari O‘zbekiston xukumatining mablag‘i hisobidan tashkil qilinadi ya’ni barcha amalga oshiriladigan o‘quv ishlari, amaliyotlar, o‘quv-moddiy baza, kadrlarga tulanadigan va boshqa mablag‘lar davlat tomonidan ta’minlanadi. Nodavlat ta’lim muassasalari esa nodavlat tashkilotlar, xo‘jaliklar, dehqon-fermer, qo‘shma korxonalar, fuqaro, homiylar yoki xorijiy tashkilotlari tomonidan tashkil etaladi. Barcha o‘quv-tarbiyaviy ishlar, kadrlar tayyorlash o‘sha homiylarning mablag‘i hisobidan tashkil qilinadi. Ammo ta’lim mazmuni davlat ta’lim standartlari talabalariga javob berishi talab etiladi.

2. Ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatish va rivojlanishni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarga esa quyidagilar: ta’lim tizimining rivojlanishini ta’minlovchi ilmiy tadqiqot institutlari, laboratoriyalar, oliy o‘quv yurtlarining ilmiy ishlarini muvofiqlovchi xodimlar, ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi pedagoglar, professorlar va boshqalar kiradi. Masalan, Pedagogika, psixologiya, kimyo, matematika, fizika va hokazo. Bu muassasalar xalq xo‘jaligining qaysi sohalari bo‘lishidan qat’iy nazar shu sohalar bo‘yicha tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanadi. Oqibatda ta’lim tizimi rivojlanadi va davlatga, jamiyatga naf keltiradi.

3. Ta’lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga esa quyidagilar kiradi: Tarmoq sohasidagi vazirliklar, viloyat xokimiyat boshqaruv organlari, tuman xalq ta’limi bo‘limi, maktablarning rahbarlari, maktablar, bolalar bog‘chalari, uylari, dam olish sanatoriyalar, kutubxona, texniklar, tabiatshunoslar, temiryo‘l stansiyalar va hokazo.

4. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi yagona va uzluksizdir talabi esa O‘zbekistonda ta’lim tizimi bitta, o‘ziga xos, mos shuning uchun u yagona degan ma’no tushunilishi kerak. O‘zbekiston ta’lim tizimi boshqa davlatlardan nusxa olmasdan, o‘z tajribasi va boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda ishlab chiqilgan va hayotda qo‘llanilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining uzluksizligi deyilganda barcha fuqarolarga ma’lumot ixtisoslik berilishida uzluksizlik, o‘zaro bog‘liklik saqlangan bo‘lib u darajasiga qarab biror mutaxassislikni tayyorlashni nazarda tutadi. Barcha ta’lim muassasalari o‘zaro uzviy uyg‘unlikda bog‘langan. Masalan, Umumiy o‘rta ta’lim bilan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limning bog‘lanishini ko‘rsatish mumkin. O‘quvchi

avval umumiy oʻrta taʼlimni oladi, soʻng esa oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimida davom ettiradi va hokazo.

### **Taʼlim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:**



- taʼlim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- taʼlimning uzluksizligi va izchilligi;



- umumiy oʻrta, shuningdek oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimining majburiyligi;
- oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi yoʻnalishini: akademik litsey yoki kasb-hunar kollejdagi oʻqishni tanlashning ixtiyoriyligi;



- taʼlim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat taʼlimi standartlari doirasida taʼlim olishning hamma uchun ochiqqligi;
- taʼlim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;



- bilimni boʻlishni va isteʼdodni ragʻbatlantirish;
- taʼlim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uygʻunlashtirish.

#### 1.2 - rasm

Oʻzbekistonda taʼlim Oʻzbekistonning ijtimoiy taraqqiyotini taʼminlovchi ustvor sohasi deb eʼlon qilingan. Haqiqatan ham davlatning rivojlanishida taʼlim sohasi ustuvordir. Chunki Oʻzbekistonning jahon hamjihatida oʻz obroʻli oʻrnini egallash vazifasini faqat taʼlim sohasi hal etadi. Xalq xoʻjaligining qaysi yoʻnalishida faoliyat koʻrsatuvchi kadr taʼlim olmoʻgi shart. Shuning uchun u kim, qayerda, qanday sohada ishlashidan qatʼiy nazar taʼlim olish orqaligina shunday mutaxassislikni egallashi mumkin. Shuning uchun hukumatimiz taʼlim tizimiga milliy daromadning 10% ni sarflamoqda. Bu haqda bobimiz M. Behbudiyning *“Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga paymol boʻlur”*, - deb aytgan soʻzlari bagʻoyat qimmatli. Taʼlimning inson, jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati

haqida Imom Al-Buxoriy “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmag‘ay”, - deb bejiz ta’kidlamagan.

*Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining har bir prinsipi barkamol insonni shakllantirishda ta’lim xodimlari, muassasalar oldiga oshirilgan talablar quyiladi, oqibatda malakali kadrlar tayyorlash maqsadi uchun xizmat qiladi. Ularning har birini qisqacha tahlil qilib o‘rganamiz.*

**Birinchi prinsipda** ta’lm-tarbiyada insonparvarlik ya’ni u odamning manfaati uchun tashkil qilinadi, uning huquqlarini demokratik qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshirish nazarda tutiladi.

**Ikkinchi prinsipda** barcha ta’lim turlarining uzluksizligi va izchil olib borilishi nazarda tutilgan. Ta’limda maqsad asosida o‘zi tanlagan sohani u yoki bu darajaga erishishda bu prinsipga amal qilib erishish mumkinligi nazard tutilgan.

**Uchinchi prinsipda** har bir fuqaroning umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi olishda majburiyligi qonun bilan asoslangan va uni bajarishi ta’minlangan.

**To‘rtinchi prinsipda** yuqoridagi ta’limda ta’lim olishni tanlashning ixtiyoriyligi belgilangan. Hech kim birovning qistovi bilan emas, balki o‘z ixtiyori bilan tanlash huquqi kafolatlangan.

**Beshinchi prinsipda** ta’lim tizimining dunyoviy bilimlarni o‘qitish, o‘rgatish g‘oyasi ilgari surilgan. Faqat inson manfaati uchun kerakli dunyoviy bilimlar o‘quvchilarga o‘qitilishi asoslangan.

**Oltinchi prinsipda** o‘rgatiladigan ta’lim davlat standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi huquqiy kafolatlangan. Fuqarolarga foydasi tegmaydigan bilimlar o‘qitish cheklangan.

**Yettinchi prinsipda** o‘quvchilarga ta’lim berishda dasturlarni tanlashga yagona yondashuv nazarda tutilgan. Masalan, umumiy o‘rta ta’lim yoki oliy ta’lim dasturlari bir yagona maqsadni nazarda tutadi, ya’ni o‘qish vaqti, mazmuni, soatlari, yagona tarzda belgilangan. Yana mazkur ta’limni amalga oshirishda tabaqalashtirilgan yondashuv deyilganda ba’zan o‘quvchilarning xohishlari hisobga olinib kuchaytirib o‘qitiladigan muassasalar faoliyati asoslanib shunday imkoniyat yaratish nazarda tutilgan. Yuqoridagi har ikki talab O‘zbekistonning barcha shu tipdagi muassasalarida yagona tartibda amalga oshirishi ta’minlanadi.

**Sakkizinchi prinsipda** ta'lim olishda qatnashuvchi o'quvchilarning bilimli bo'lishi va iste'dodini taraqqiy ettirishi, rag'batlantirishi nazarda tutilgan. Masalan, a'lo bahoga o'qiydigan o'quvchilar, talabalar xukumat tomonidan moddiy va ma'naviy rag'batlantirishi amalga oshirilishi belgilab berilgan. Stipendiya, yo'llanmalar va boshqa mukofot shakllari asoslab ko'rsatilgan. Uni bajarishi davlat siyosatligi belgilangan.

**To'qqizinchi prinsipda** tizimini boshqaruvining davlat va jamoat tajribasi uyg'un uzviy bog'liq holda joriy etilishi nazarda tutilgan. Bu prinsip o'z navbatida davlatni demokratik tamoyillar asosida huquqiy boshqarishga fuqarolarni tayyorlashni nazarda tutadi.

Umuman, ta'lim sohasidagi barcha prinsiplar inson, jamiyat, umumbashariy manfaatlarini birlashtirib, barkamol malakali mutaxassilarni tayyorlashni nazarda tutgan. Bunday kadrlar O'zbekistonning bundan keyingi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan deb xulosalash mumkin.

### Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajadagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi turlarini o'z ichiga oladi:



Maktabgacha ta'lim;  
Umumiy o'rta ta'lim;



O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;  
Oliy ta'lim;



Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;  
Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;  
Maktabdan tashqari ta'lim;

Biz faqat ta'lim turlarinigina bilib qolmasdan, balki har bir turining mazmuni, maqsadi va vazifalari haqida ilmiy pedagogik ma'lumotga ega bo'lishimiz darkor.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rtamaksus, kasb-hunar ta'limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy o'rta ta'lim dasturidan o'rta maxsus, kasb-hunar dasturlariga izchil o'tilishini ta'minlaydi. Umumiy ta'lim dasturlari: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar), umumiy o'rta ta'lim (I-IX sinflar), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini qamrab oladi.

Kasb-hunar ta'limi dasturlari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy (bakalavriant, magistratura) ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni qamrab oladi.

Maktabgacha ta'lim.

Mazkur ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. U o'quvchilikka intilish hisi uyg'otiladi va uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'limga oilada, bolalar bog'chasida, mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va hayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar va har qanday jismoniy shaxslar faol ishtirok etishi mumkin.

Maktabgacha ta'limi yaxshilash uchun tarbiyachi, pedagog kadrlarni tayyorlash, maktabgacha ta'limning samarali pedagogik - psixologik uslublarini izlash, bolani oilada tarbiyalashda psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash; zamonaviy o'quv uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar maydonlar yaratish va hayotga tadbiq qilish; maktabgacha yoshdagi bolalarni halqning boy madaniy - tarixiy merosi asosida tarbiyalashga shart-sharoit yaratish hamda ularning sog'ligini ta'minlash va chiniqtirish bo'yicha qulay sharoit yaratish kabilarni nazarda tutadi. Eng asosiy vazifasi bolalarning hayotini rejimga solish, axloq-odob xulq-atvor tarbiyalash, rasm chizish, harf elementlarini mashq qilish, sanash, hisoblash, nutq, organizmni chiniqtirish, dam olishlarni tashkil etish kabi vazifalar amalga oshiriladi. Ulardan madaniy xulq-atvor, sodda mehnat ko'nikmalari, gigiyena qoidalari o'rgatiladi.

## Umumiy oʻrta taʼlim

### Umumiy oʻrta taʼlim bosqichlari quyidagilar:


Boshlangʻich taʼlim(I-IV sinflar). Umumiy oʻrta taʼlim(I-IX sinflar). Bu taʼlim umumiy oʻrta taʼlim olish uchun zarur boʻlgan bilim, koʻnikma asoslarini, savodxonlik tartib toptirishga qaratilgandir. Boshlangʻich taʼlimga bolalar 6-7 yoshdan qabul qilinadi.

Bu masalani tibbiyot, ruxshunos va oʻqituvchilardan tashkil topgan hayʼat hal qiladi. Agar bolaning jismoniy, aqliy va ruxiy tomondan rivojlanishi oʻqish faoliyatini davom ettirishga imkoni boʻlsa, unday bolani 6 yoshdan qabul qilinadi. Boshlangʻich taʼlim oʻquvchilarni maktabda oʻqishning ilk tayyorgarligini amalga oshiradi.

Umumiy oʻrta taʼlim bilimlarning zarur hajmini (boshlangʻich taʼlimda oʻqish, yozish, hisoblash, hikoya qilish, rasm chizish, koʻnikmalarini bajarishga oʻrgatish bilan umumiy taʼlimda oʻqishga tayyorlaydi) beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba koʻnikmalarini rivojlantiradi, dastabki tarzda kasbga yoʻnaltirishda va talimning navbatdagi oʻrta maxsus, kasb-hunar bosqichini tanlashga yordam beradi. Toʻqqiz yiliik (I-IX sinflar) oʻqishdan iborat umumiy oʻrta taʼlim majburiydir.

Bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin. Masalan: sport, sanʼat, musiqa va boshqa fanlar boʻyicha ham maktablar tashkil etilish mumkin.

## Umumiy o‘rta ta’limning vazifalari:



1.4 – rasm

Davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalash hamda shaxsning ta’lim olish huquqini ro‘yobga chiqarish umumiy o‘rta ta’limning maqsadi hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim bilimlar zarur hajmiga asos soladi, o‘quvchilarda tashkilotchilik qobiliyatlari va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki kasb yo‘nalishiniva ta’limning keyingi bosqichini tanlashga ko‘maklashadi. Umumiy o‘rta ta’lim tugallagandan keyin ta’lim fanlari va ular bo‘yicha olgan baholar ko‘rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi.

## Umumiy oʻrta taʼlimning yangi tizimi va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:



yuqori malakali pedagogik va kadrlar tayyorlash;  
hududlarning joʻgʻrofiy va demografik  
xususiyatlariga mos taʼlim muassalari tarmoqlarini  
rivojlantirish;



oʻquvchilarning qobiliyat imkoniyatlariga muvofiq  
ravishda tabaqalashtirilgan yondoshuvni joriy  
qilish;



ilgʻor pedogog texnologiyalarini, oʻquv-uslubiy  
majmualarni didaktik talablar asosida yaratish;



oʻquvchilar kasb-hunar tanlaydigan va psixologik-  
pedagogik maslahatlar oladigan markazlar  
tarmogʻini tashkil etish va hokazo.

1.5 – rasm

### **Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi**

Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi olish maqsadida har kim umumiy oʻrta taʼlim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida oʻqishning yoʻnalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar boʻyicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki taʼlimning navbatdagi bosqichida davom ettirish uchun asos boʻladigan oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi beradi.

Akademik litsey oʻquvchilarning intellektual qobiliyatlarini oʻstirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yoʻnaltirilgan bilim olishlarini taʼminlaydigan uch yillik oʻrta maxsus yurtidir.



Akademik litsey davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olib, ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlagan yo'nalishi bo'yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ko'nikmalarni o'qishni muayyan oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro'yobga chiqarishlari mumkin.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. U ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish va egallagan kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

## **Oliy ta'lim**

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim ikki bosqichga bo'linadi: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriyat va magistraturaga ega.

Bakalavriyat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan o'qish muddati kamida 4 yil bo'lgan tayanch oliy ta'limidir. Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriyat negizida kamida 2 yil davom etadigan oliy ta'limdir. Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

Oliy o'quv yurtlariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriyat dasturi tugallangandan so'ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb bo'yicha "bakalavr" darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi. Magistr darajasini beradigan davlat malaka attestatsiyasi magistrlik dasturining intihosidir.

## Oliy ta'limni rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:



- bakalavr va magistr darajasi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish;
- professor-o'qituvchi kadrlar tayyorlashni chet ellardagi yetakchi o'quv yurtlarida tashkil etish;
- oliy ta'limda tarkibiy o'zgarishlar o'tkazish;



- oliy ta'lim boshqaruvini takomillashtirish, mustaqilligini kuchaytirish, jamoat nazorat kengashlari shaklidagi jamoat boshqaruvini tashkil etish;
- ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta'minlash va joriy etish;



- o'qishni individuallashtirish va distansion ta'lim texnologiyasi vositalarini ishlab chiqish;
- xalqning boy ma'naviy va intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ta'limning insonparvarlik yo'nalishini ta'minlash va hokazo.

1.6 – rasm

### Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim


Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni ta'minlashga qaratilganidir. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot muassasalarida (aspirantura, adyunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Oliy o'quv yurtidan keyinga ta'lim bosqichlari (aspirantura, doktorantura) dissertatsiya himoyasi bilan yakunlanadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi natijalariga ko‘ra fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi berilib, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar topshiriladi. Bu ishni takomillashtirish uchun: kasb ta’limi tizimi uchun oliy malakali ilmiy pedagogik kadrlarni ustivor tayyorlash; chet ellar tajribasidan foydalanishga sharoit yaratish; fan, texnologiya va ta’lim sohasida rivojlangan mamlakatlar bilan halqaro hamkorlikni chuqurlashtirish va hokazo.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta’minlaydi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

**Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarning kasb bilimlarini va ko‘nikmalarini yangilash va chuqurlashtirishga qaratilgan. Uni bitirganlarga guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi. Uni rivojlantirish uchun:**




1.7 – rasm

## Maktabdan tashqari ta'lim

Bolalar va o'smirlar yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin. Maktabdan tashqari muassasalariga bolalar ijodiyoti saroylari, uylar, klublar, markazlar, bolalar o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.

*Bolalar va o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibda talab ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar, madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etadilar. Uni takomillashtirish uchun:*



1.8 – rasm

## **Oilada ta'lim va mustaqil ravishda ta'lim olish**

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ravishda ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarni oilada o'qitish va mustaqil ravishda ta'lim tegishli ta'lim muassasalarining dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan uslubiy, maslahat va boshqa yo'sinda yordam ko'rsatiladi.

Bo'lajak bakalavr va magistr mutaxassislar O'zbekistonda ta'lim tizimi turlari va ularning ish mazmuni haqida ilmiy ma'lumotga ega bo'lishlari darkor. Chunki bo'lajak mutaxassislar har bir ta'lim turining tuzilishi, mazmuni, maqsad va vazifalarini aniq tasavvur etishlari shart. Bunday mas'uliyat egallayotgan ixtisosligi bo'yicha kasb ko'nikmalarini o'z vaqtida tarkib toptirishga yo'naltiradi. O'z ixtisosliklari yuzasidan chuqur ilmiy pedagog ma'lumot olishga da'vat etadi. Eng muhimi har bir ta'lim tizimi haqida ilmiy ma'lumotga ega bo'lmay shu sohadagi vazifalarni bajarish mumkin emasligini tushunib yetmoqlari lozim.

### **Nazorat savollari**

1. Xalq ta'lim tizimi haqida tushuncha.
2. O'zbekistonda ta'lim tizimi tarixi haqida ma'lumot.
3. Ta'lim tizimining tuzilishi va uning ish mazmuni.
4. Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari.
5. Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim.

*«Kimki tarixga to'pponcha o'qtalsa, uni kelajak  
zambarakdan to'pga tutadi».*

**G.K.Jukov – mashhur sarkardaning yon daftaridan**


### **1.2. Ta'lim tarbiya jarayonini boshqarish**

**Ta'lim tarbiya jarayonini boshqarish manosi shundan iboratki kollejning raxbarlari va xodimlari kollej xayotini barcha murakkabligiva hilma – hilligida maqsadga yo'llangan holda aktivo'rganishlari va shular asosida kollej ta'limining butun tizimini ularda ustirish pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga**

yordam beradigan karorlarni qabul qilishlari hamda amaliy tadbirlarni ishlab chiqishlari kerak. Ta'lim tarbiyani yaxshilashning hal qiluvchi shartlaridan biri raxbarlikning ilmiy asosda bo'lishidir.

Raxbarlikning ilmiyligi yangilikni izlash, ilmiy mashg'ulotlardan foydalanish, jamoaga raxbarlik qilishning pedagogik, psixologik va iqtisodiy asoslarini egallash demakdir.

**Ta'lim tarbiyani ilmiy boshkarishda:**



1.9 – rasm

**Kollejni ilmiy asosda boshkarishga o'tishning muhim shartlaridan biri – kollej raxbarining butun ta'lim – tarbiyaviy ishni pedagogik taxlil qilishlari, kollej vazifalarini bilishlari va tushuntirishlaridan iboratdir.**

**Bu kuyidagi faktorlardan aniqlanadi:**

- **Ta'lim – tarbiyaviy jarayon haqidagi yaxshi tashkil qilingan ma'kul axborotlar oqimi;**
- **Bu axborotni chukur va fikr yuritib taxlil qilish natijasida**

**amaliy faoliyat uchun xulosalar chikara bilish;**

- **Axborot taxlilidan kelib chikuvchi xulosalar asosida jamoa ishini tashkil kila bilish. KXXda raxbarlik qilish.**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va Urta mahsus ta’lim vazirligi tomonidan belgilangan malakali ishchilarni tayyorlash davlat rejasiga muvofiq tashkil kilinadi, qayta tuziladi va bekor kilinadi. KXXning barcha faoliyatiga kollej buysinuvchi kasb-ta’limi organi tomonidan tashkilotchilik kobilyatiga, kollejning ixti-sosiga muvofiq keluvchi oliy ma’lumotga ishlab chiqarish va pedagogik tajribaga ega bo‘lgan xozirgi zamon talabi bo‘yicha ilmiy darajasi bo‘lgan shaxslardan tayinlanuvchi deroktor raxbarlik qiladi. Kollej direktori o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyaviy ishlariga, kasb-talimi tayyorgarliklarini tashkil qilish sifatiga, ularning sogliklari va jismoniy rivojlanishiga shuningdek unga ishonib topshirilgan bilm maskanini xujalik moliyasi va shu kabilarga javobgardir.**

**Direktorning zimmasiga:**

**O‘quvchilarni qabul qilish, malakali ishchilarni yetishtirib chiqarish rejalari-ning bajarilishi;**

Pedagogik jamoa KXX direktori bilan birga o‘quv ishlab chiqarish va ta’lim tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosar, ilmiy mudir hamda katta usta raxbarlik qiladi. Boshkarish sa’nati shundan iboratki,unda kollejning barcha raxbarlari,jamoani yagona maqsadini egallashga yo‘llashlari, bir – birining faolyatlarini takrorlamasliklari,ayniqsa har bir raxbar o‘z vazifasini aniq bilishi kerak.

Kollej direktori va o‘rinbosarlarining ishida bir biriga alokador, ba’zan esa umumiy vazifaga ega bo‘lgan ishlar uchraydi. Shuning uchun bu vazifalarning aniq sharoitlarda taksimlanishi juda muhimdir, bu esa ish jarayonida takrorlashning oldi oladi va bilim yurtidabiron bulimlarni nazoratsiz qolishiga yo‘l kuyilmaydi. Ko‘pincha kollej direktorlari noto‘g‘ri yo‘l to‘tadilar ular pedagogik jamoa ishga raxbarlik qilishning barcha vazifalarini o‘rinbosarlari urtasida taksimlaydilar o‘zlariga «umumiy raxbarlik»ya’niy xech bir tayini yuk nazorat qilib bulmaydigan vazifani koldiradilar.

Tajribaning kursa-tishiga bunday xollarda o‘rinbosarlarning kalbaki «harakat erkinligi»ga raxbarlik diapozonining kengligiga karamay kollej direktorlari kollejdagi ishlarning axvoli haqida yetarlicha axborotga ega bulmaydilar va ularga sezilarli darajada ta’sir etmaydilar. Umumiy

ishlarning ma'lum qismini emas balki o'zlari haqida qabul qilingan nizomga muvofiq o'qish jarayoniga raxbarlik qilishning aniq vazifalarini o'z zimmlariga olgan kollej direktorlarining amalyoti o'zini oqlagan. Direktorning kollejda o'qish jarayoniga raxbarlik qilish vazifalari qanday taksimlan-masin direktor faolyatidagi asosiy narsa barcha xodimlarning kollej ta'limi sistemasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish-lari koordinatsiya qilishdir. Direktorning tashkilotchilik faoliyati kollej ishlarini bevosita o'rganishni o'rinbosarlaridan pedagogika kollektivining ishlari haqida tezrok axborotni o'z ichiga oladi. Kollej direktori bunday axborotlarni umumlash-tirib va kelgusida ta'lim-tarbiyaviy jarayonni yanada takomillash-tirish uchun tezrok tadbir va choralarni qabul qiladi. Pedagogik jamoa faolyatiga muvoffokiyatli raxbarlik qilish uchun direktor va uning o'rinbosarlari ish vaktini to'g'ri taxsimplashlari muhim ahamyatga ega.

***Kollej raxbarlari mashgulotlarga kirishdan kuyidagi maqsadlar nazarida tutiladi dars mazmunining o'quv rejasida muvofiqligini aniqlash urganilayotgan materiallarning ilmiy darajasini va uning g'oyaviy yunalishini aniqlash:***

- Darslarda didatika asosiy tamoillariga rioya kilinayotganligini kontrol qilish; Dars tipi o'qitishning metod va tamoillarini to'g'ri tanlaganligini tekshirish; Darsning tarbiyaviy ahamiyatini tekshirish;
- O'qituvchining shu predmetdan dars berishga va maskur darsni olib borishga tayyorgarligini tekshirish;
- Darsni to'g'ri tashkil qilinganligini baxolash;
- Maqsadga ko'ra nazorat quydagi turlarga bulinadi; Kundalik umumiy tekshirish;
- Nazoratning amalda eng ko'p tarkalغان turi xisoblangan (tematik kontrol) mavzuviy nazorat bu usta yoki uktuvchining ish tizimini o'rganishdir.

Ma'lumotlarni mavzuviy ko'zatish o'quv jarayoning aloxida pedagogik kizikishga ega bo'lgan tomonlarning xolatini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Fanni utishning ilmiy – nazariy darajasini o'rganish darslarda tarbiyaviy vazifalarni hal qilish, o'qituvchining o'quv materialini bayon qilish sifatini tekshirish, o'qituvchi foydalanayotgan metodtk vosita va usullarni o'rganish darslarda ishning jamoa va yakka tartibli shakllarini



qo‘shib olib borishi o‘quvchilar bilimni tekshirish tizimi o‘qitishda ko‘rgazmali yoki texnikaviy vositalarni kullash o‘quvchilarning darslardagi mustaqil ishlari utilgan o‘quv materiallarini takrorlash va mustaxkamlashni tashkil qilish o‘quvchilarga mehnatning ilg‘or metodlarini o‘rgatish, kirish, joriy, yakuniy yo‘l yo‘riqlar o‘tkazish metodikasi, ustaning mehnat usullarini ko‘rsatish metodikasi, ishlab chiqarish ta‘limi bilan nazariy kurs urtasidagi aloka, o‘quvchilarning mustaqillagini tarbiyalashda yozma yo‘l – yo‘riqning roli; Usta va o‘qituvchilarning pedagogik ish tizimlarini o‘rgatishda e‘tibor faqat o‘quv materialini berish metodiga emas, balki o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning tarbiyalash qanday amalga oshirilayotganligiga, o‘quvchilar ishi qanday tashkil etilganligiga va uning natijalari qanday ekanligiga ham karatiladi.

Mazkur xolatda kollej raxbarlarining asosiy vazifasi usta yoki o‘qituvchining pedagogik xususiyat hamda kobiliyatlarini, o‘z fanlarining materiallarini o‘qitish metodikasini kanchalik bilishlarini aniqlash va baxolashdan iboratdir. Kollej raxbarlarining nazariy o‘qitish darslari va ishla chiqarish mashgulotlariga kirishlari puxta uylangan reja bo‘yicha olib boriladi.

***Pedagogik nazoratni to‘g‘ri tashkil qilishning zaruriy sharti uni maqsadga yunalganlik tavsifini, kollej raxbarlari ishning (korrinatsiyasi) va birligini ta‘minlovchi rejalashtirishdir.***

Nazoratning rejalashtirishning yagona tizimi bulmaganligi uchun u ko‘pgina ta‘lim – tarbiyaviy jarayonning barcha tomonlarini qamrab olmaydi, kerakli maqsadga yunalmaydi, tasodifiy harakter kasb etadi. Rejalashtirilgan nazorat o‘z vaqtida xatolarning oldini olish va o‘qitishda aniqlangan kiyinchiliklarni bartaraf qilish imkonini beradi.

Ba‘zi kollejlarda raxbar xodimlar o‘quv mashgulotlariga direktorning o‘quv ishlab chiqarish ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari tomonidan har bir oy uchun tuzilgan grafik bo‘yicha kiradilar. Bu grafikda kelgusi oyda raxbarlardan kaysi biri, kachon va kaysi mashgulotlarga kirishi ko‘rsatiladi.

Kollej raxbarlari tmonidan qilingan pedagogik nazorat-ning saviyasi va ta‘sirchanligi avvalo ularning tayyorlanish darajalariga bog‘liqdir.

***Darslarni to‘g‘ri analiz qilish uchun raxbarlar ta‘lim*** – tarbiya viy ishning mazmuni va tashkil kilini-shini, o‘quvchilarni o‘qitish hamda tarbiyalashning metod va formalarini, o‘quv hamda yigma mavzuviy reja va dasturlarni, tushuntirish xatlari va kvalifikatsiya talablarini yaxshi bilishlari, xozirgi zamon ilmiy texnika, pedagogika, metodikaga doir va boshka adabiyotlarni ko‘zatib borishlari kerak.



1.10 – rasm

Nazariy o‘qitish darslarini tekshirishni boshlashdan oldin tekshiruvchiga sinf binosining xolati, o‘quv – ko‘rgazmali kullanmalarning belgilangan normativlarga muvofiq bor – yukligi, ularning xolati va sifati, yangi texnika va mehnatning ilg‘or metodlari hamda ko‘rsatmali kurollar bilan ta‘minlan-ganligi bilan tanishib chiqish tavsiya kilinadi. Darsga kirish, uni o‘qitishni analiz qilish – ta‘lim tarbiyaviy jarayonni

teshshirishni asosi xisoblanadi. Kollej raxbarlarining darslarga kirishlari ularga o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashning xakikiy axvoli, pedogog xodimlarning muvafakkiyat va kamchiliklari bilan tanishish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida kollejda ta'lim – tarbiyaviy ishlarni yaxshilashga yordam beradi.

Nazariy o'qitish darslari ga kirishda sinf dars boshlashidan oldin yoki o'quvchilar bilan birga kirish tavisya kilinadi, mashgulotlar haqida tulik tasavvurga ega bo'lish uchun darsning boshidan oxirigacha bo'lishi kerak.

Agar o'qituvchi yoki ustaning o'quv ishini joriy tekshirish muljallansa, mashgulotlarga kirish oldindan ogoxlantirib kuyish maqsadga muvofiq bulmaydi. Agar asosiy maqsad o'quv mashgulotlarini mavzuviy o'rganish, yo'llanma berish, o'qituvchi yoki ustaning malakasini oshirish bulsa, bu mashgulotlarga mahsus tayyorgarlik kurishlari uchun ularni oldindan ogoxlantirib kuyish maqsadga muvofiqdir.

Ayrim xollarda yetarlicha tajribaga ega bulmagan usta yoki o'qituvchining o'quv mashgulotiga kirishdan oldin u bilan birgalikda mazkur mashgulotlarga qo'yiladigan talablarni analiz qilish, uning ba'zi metodik masalalarni ijodiy hal qilishiga yordam berish tavisya kilinadi. Bilim yurtining raxbarlari o'quv mashgulotiga kirgan vaktlarida usta yoki o'qituvchiga berilgan ko'rsatmalarni amalga oshirish kobiliyatlariga ishonch hosil qiladilar.

Darsni tekshirish haqidagi yozuvlarni vertikal chizik bilan uch bo'lakka ajratilgan kogoz varagiga yozish kulaydir. Ularni biriga dars jarayonida aniqlangan va o'tkazib yuborilgan xato, kamchiliklar ikkinchisiga ijobiy momentlar, o'rinli metodik usullar, uchinchisiga darsni olib borayotgan usta yoki o'qituvchiga aytiishi kerak bo'lgan maslaxat va tavisyalar yozib boriladi.

Tekshiruvchi darsdan so'ng kiska yozuvlar asosida dars haqida to'g'ri xulosa to'za olishi yoki batafsil analiz kila olishi uchun ko'zatuvchan, dikkatli bo'lishi, kurgan va eshitganlarini yodda saklay bilishi kerak.

- Ishlab chiqarish ta'limi ustasining ishini taxlil qilishda tekshiruvchi o'quv ishlab chiqarish ustaxonalari yoki o'quv uchastkalarining axvoli bilan oldindan tanishib chikadi;

- jixozlarning axvoli va ulardan foydalanishning to'g'riligini, o'quvchilarning asbob, moslama bilan ta'minlanganligini, o'quvchilar va usta ish urnining xolatini tekshiradi.

- Xavfsizlik qoidasi va o‘quvchilar mehnati gigiyenasi tadbirlarining bajarilishiga alloxida e’tibor berish lozim.

Ishlab chiqarish mashgulotlarini tekshirish ning boshlashdan avval guruxdagi o‘quvchilarning o‘quv ishlarini kayd qilish, guruxdagi o‘quv ishlarini xolatini, ishlab chiqarish buyurtmalarining bajarish rejasini o‘rganish, o‘zlashtirishni baxolash jurnali, texnik va o‘quvchilar ishlaydigan boshka xujjatlar bilan tanishib chiqish muhim ahamiyatga ega.

### **Madaniy tarbiyaviy ishni tekshirish vaqtida:**

guruxda qanday madaniy tarbiyaviy ish amalga oshirilayotganligi, o‘quvchilarning kollejning o‘quv – ishlab chiqarish,

ijtimoiy – siyosiy, madaniy – tarbiyaviy faoliyatida aktiv ishtirok etishlari etishlari uchun qanday individual va kollektiv ish olib borilayotganligi;

Ishning individual va jamoa formalari qanday qo‘shib olib borilayotganligi, ular mazmunining bilim yurtining ta’lim – tarbiyaviy vazifalariga, o‘quvchilarning bo‘lajak kablarga muvofiqligi;

O‘quvchilarning sinfdan tashkari tarbiyaviy, ijtimoiy ishda ishtirok etish darajalari; jamoat topshiriklarini o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga, qiziqilariga mosligi;

O‘quvchilarning qanday tashkilotlari kollejdagi muhim masalalarni hal qilishga jalb kilinadi, ularning aktivlik, mustaqillik, javobgarlik darajalari;

O‘quvchilar jamoasi tomonidan jamoatchilik asosida bajarilgan ijtimoiy – foydali ish, ularning tarbiyaviy roli hamda iktisodiy qimmatiga.

1.11 – rasm

Ta’lim – tarbiyaviy jarayon yuzasidan taxlil o‘tkazilganda kollej ishlab chiqarish ta’limi ustalari, o‘qituvchilari va boshka xodimlari ishidagi yutuk va kamchiliklarni harakterlovchi ko‘p mikkordagi fakt, ma’lumot, dalillar tuplanadi. Bu faktga asoslangan material kimmatga ega,

shuning uchun unga tegishli ishlov berib, sistemaga solingandan keyin pedagogik jamoa bilan ishlashda foydalanish kerak.

O'quvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini tekshirish darsining tuzilishi.

### **Darsning maqsadi:**

ishlab chiqarish – texnikaviy bilimlarga, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablarni xisobga olgan holda o'qitish muayyan bir davrda (yarim yillik, yillikda yoki kiska vakt ichida o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlash).

### **Darsning mazmuni:**

vakt normalarini, bajarish aniqligiga qo'yiladigan talablar va ish sharoitini xisobga olgan holda berilgan materialidan nazorat namunalari tayyorlash.

Dars olib borishning asosiy metodlari: o'quvchilarning nazorat ishining maqsadi, mazmuni va shartlari bilan kiskacha tanishtirish; ustaning o'quvchilarning ishlarini ko'z atashi, har bir o'quvchining yo'l kuygan ayrim kamchiliklari va hal etgan ijobiy yechimlarini aniqlash.

### **Dars tuzilishi:**

tashkiliy qism, kirish, yo'l – yo'riq, o'quvchilarning mustaqil ishlari, yakunlovchi yo'l – yo'riq ish o'rinlarini tartibga solish.

Darsning tashkiliy elementlari 5% gacha.

Kirish va yakunlovchi yo'l – yo'riqlarga - 5%.

O'quvchilarning ishlashi (ustaning nazorati ostida) – 90% gacha.

### **Nazorat savollari**

1. KXXning ilmiy boshqarish.
2. KXXda raxbarlik qilish.
3. Madaniy tarbiyaviy ishni tekshirish.
4. Ta'lim – tarbiyaviy jarayon yuzasidan taxlil o'tkazilish tartibini aytib bering.

*«Ishning yaxshi boshlanishi – uning yarmining bajarilishidir».*

**Pifagor – yunon matematigi va faylasufi**

### **1.3. Boshqarish usullari**

Boshqarishni ragʻbatlantirish, kadrlar, maktab hujjatlari, rivojlantirish usullar. Maktab ichidagi boshqaruvini toʻgʻri tashkil etishda boshqarish usullarining roli benihoya kattadir. Boshqarish usullari oʻqituvchi, tarbiyachi, texnik xodimlarga, umuman maktab jamoasiga taʻsir koʻrsatish vositasi boʻlib, bu vositalar oʻrtaga qoʻyilgan maqsadlarga erishish jarayonida mazkur xodimlar va jamoalarning faoliyatini uygʻunlashtirishni taʻminlaydi.

Shuning uchun ham maktab ichki boshqaruvini tashkil qilish va uni amalga oshirishda maktab rahbarlarining boshqarish usullarini toʻgʻri tanlashi va undan oʻz oʻrnida toʻgʻri foydalanishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

**Boshqarish usullarini ularda aks etadigan maktab ishiga taalluqli boʻlgan munosabat turlariga qarab tasnif qilish bilan bir qatorda, bu usullarni maktab xodimlarining faoliyat motivlarini hisobga olgan holda ularga taʻsir etish nuqtai nazaridan ham farq qilish lozim. Shu oʻrinda quyidagi motivlarni ajratib koʻrsatish mumkin:**

- a) har bir maktab xodimining huquq va burchlaridan kelib chiqadigan faoliyat motivlari (majburiy motivlar);
- b) moddiy manfaatlardan kelib chikadigan motivlar;
- v) maʼnaviy (ruhiy) motivlar.

**Shunga koʻra boshqarish usullarini ham quyidagicha boʻlish mumkin:**


1. Boshqarishning tashkiliy-maʼmuriy usullari.
2. Boshqarishning sotsial-psixologik usullari.
3. Boshqarishning huquqiy usullari.
4. Boshqarishning bevosita koʻrsatma berish usullari.
5. Boshqarishda ragʻbatlantirishdan foydalanish usullari.
6. Kadrlarni maʼnaviy jihatdan rivojlantirish usullari.
7. Boshqarishda kuzatish usullari.
8. Maktab hujjatlarini tahlil qilish usullari.

## **Boshqarishning tashkiliy-ma'muriy usuli**

Boshqarish usullari tizimida alohida o'rinni egallaydi. Ular boshqaruv bo'g'inlarining o'zaro bog'lanib ishlashining boshqaruv munosabatlarini aks ettirib, boshqariluvchi mansablarga ma'muriy ta'sir ko'rsatishining butun mexanizmini ifodalaydi. Boshqaruv bo'g'inlari tomonidan amalga oshiriladigan boshqarish aktlari ikki turga bo'linadi: normativ aktlar va shaxsiy aktlar. Boshqaruvga oid normativ aktlarda aniq muayyan shaxs bo'lmaydi: ular biror sharoitga tadbiquan olinadigan umumiy hatti-harakat qoidalarini o'z ichiga oladi va ko'pincha uzoq vaqtga mo'ljallangan bo'ladi. Boshqarishning shaxsiy aktlari esa muayyan subyektlarga qaratilgan bo'ladi.

Tashkiliy usullarni tashkiliy ko'rsatma va farmoyish berish yo'li bilan ta'sir ko'rsatishga bo'lish keng tarqalgan. Tashkiliy ma'muriy ta'sir ko'rsatish turli tashkiliy choralarni masalan, maktabni boshqarishning tashkiliy mazmuni va mundarijasini belgilash, ichki tartib qoidalarini o'rnatish va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Farmoyish, ko'rsatma va buyruq berish yo'li bilan ta'sir ko'rsatish barcha boshqarish bo'limlarining ishlanishi kunda tezkorlik bilan ta'minlab turishdan iborat balib, unga ko'rsatmalar berish, yozma shakldagi yoki og'zaki beriladigan buyruqlar vositasi bilan erishiladi. Bir-biriga bo'ysunmagan boshqarish bo'g'inlari o'rtasidagi munosabatlar o'z xususiyatiga egadir. Bu bo'g'inlarning umumiy ta'lim maktabi bilan, maktabdan tashqari bolalar muassasasi bilan hamjihat ishlashi uchun boshqarish munosabatlariga xos bo'lgan farmoyish yoki buyruq berish, usulidan farqli o'laroq, kelishuv akti kabi tashkiliy usuldan foydalanish o'rinli bo'ladi. Bunday metodda tashkil qilingan boshqaruv, so'zsiz o'zining ijobiy natijalarini beradi. Boshqarishning ijtimoiy-psixologik usullari maktab xodimlariga ta'sir etish usullaridan biri bo'lib, ular maktabning muallimlar jamoasini, ulardagi "psixologik iqlimni", har bir hodisaning shaxsiy xususiyatlarini va hokazolarni o'rganishga asoslanadi.

**Boshqarishning ijtimoiy-psixologik usullarini ikkita asosiy turga:**



1.12 – rasm

### **Boshqarishning huquqiy usullari**

Mamlakatimiz xalq xo'jaligi tarmoqlarini hamda o'quv maskanlarini asosan davlat yo'li bilan boshqarish ma'muriyatlar tizimida huquqiy vositalardan tobora kengroq foydalanish amalga oshirilmoqda. Huquqiy vositalar deganda ijtimoiy munosabatlarga yuridik ta'sir ko'rsatish vositalarining jami tushuniladi.

Huquq mezonlari davlat tomonidan chiqariladi, agar jamoat tashkilotlari tomonidan chiqarilsa, davlat tomonidan tasdiqlanadi. Huquq mezonlari turli qonuniy xujjatlar, nizomlar, ko'rsatmalar, instruktiv-metodik ko'rsatmalar, buyruqlar, farmoyishlar, qarorlar va hokazolar shakliga kiritiladi.

Moddiy javobgarlik korxonalar, tashkilotlar, o'quv yurtlari, maktabgacha tarbiya va maktabdan tashqari bolalar muassasalari, internat-maktablari, bolalar uylari, shuningdek, ayrim mansabdor shaxslarning zimmasiga xo'jalik faoliyatining (muassasalari rahbarlarining xo'jalik ishlari bilan shug'ullanuvchi o'rinbosarlari va xodimlari) natijalari uchun yuklanadigan ma'suliyatdir. Moddiy javobgarlik turli jarimalarda, peniyalarda va hokazolarda ifodalanadi.

Boshqarishning bevosita ko'rsatma berish usuli ko'proq sube'ktlarning buyruq, ko'rsatma, farmoyish, topshiriqlar berish yo'li bilan boshqarish manbaiga ta'sir ko'rsatishini ta'minlovchi usul va harakatlarni o'z ichiga oladi.

Boshqarishning mazkur usullari maktabdagi ilmiy tarbiya jarayonida



qatnashuvchilarning yuqori boshqaruv bo'g'inlari va maktab ma'muriyati hamda pedagoglar kengashining qarorlari, direktorning buyruqlari va turli ko'rsatmalarni bajarish uchun maktab xodimlarining shaxsan javobgar bo'lishini ta'minlaydi.

Boshqarishda rag'batlantirishdan foydalanish metodlari. Maktab ichki boshqaruv tizimida o'qituvchi, tarbiyachi va texnik xodimlarni rag'batlantirish ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish va uning sifat-samaradorligini yanada oshirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Rag'batlantirish turlariga quyidagilar kiradi: joriy mukofotlash, ta'lim-tarbiya ishida alohida o'rnak ko'rsatgani uchun mukofotlash, respublika xalq maorifi a'lochisi va hokazolar.

Pedagog xodimlarni ma'naviy jihatdan rivojlantirish usullari. Mehnatning ma'naviy omillari ma'naviy-siyosiy, ijodiy va boshqa omillarni o'z ichiga oladi. Ma'naviy-siyosiy omillarning negizi ilmiy dunyoqarash, tarixiy taraqqiyot istiqbollari tushunish va qayta qurish tantanasiga ishonishdir. Shuning uchun maktabning muallimlar jamoalarini boshqarishda ularning har birini siyosiy, ilmiy, metodik va umumpedagogik jihatdan saviyalarini oshirib borishi, shuningdek, ularga iqtisodiy bilimlar berish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda maktab xodimlarining ongi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning pedagogik mehnat sohasidagi faoliyati, binobarin, o'quv-tarbiya bobidagi yutuqlari shunchalik yuksak bo'ladi.

Ijodiy izlanishning negizi-o'qituvchilik kasbga mehr qo'yish, uni qadrlash, pedagog mehnatning o'zidan, uning natijalaridan qanoat hosil qilishdir. Bu omillardan samarali va o'rinli foydalanish maktabning ta'lim-tarbiya ishini yanada takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi.

### **Boshqarishda maktab hujjatlarini tahlil qilish usuli.**

Maktab ichki boshqaruvi tizimida pedagogik jarayonni, uning ayrim xodisalari va faktlarini tekshirishda maktab hujjatlarini chuqur o'rganish va har tomonlama tahlil qilish masalasiga alohida e'tibor berish hozirgi davrning muhim talablaridan biridir, chunki, bu hujjatlarda maktabning, muallimlar jamoasining yosh avlodni tarbiyalash, unga puxta bilim berish va uni o'qish masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish borasidagi faoliyati o'z ifodasini topgan.

## **Maktab hujjatlari jumlasiga:**

*O'quv mashg'ulotlarining jadvali, maktab ishining rejalashtirishning barcha turlari, uzluksiz ta'limning muhim shoxobchasi bo'lgan o'rta umumiy ta'limga doir hisob va hisobotlar, ta'lim-tarbiya ishlariga tegishli hujjat va hisobotlar, sinfdan, maktabdan tashqari ishlarga tegishli bo'lgan Nizomlar, instruktiv-metodik ko'rsatmalar, shu asosda ishlangan maktabning turli hujjatlari (buyruq va kengash qarorlari) va dastur hamda rejalar, ta'lim-tarbiya ishlarini taqsimlash, o'quvchilar va o'qituvchilarning kundalik daftarlari, maktabning buyruq daftarlari, maktab pedagoglar kengashining qarorlari daftari, maktab smetasi va turli moliyaviy hujjatlar, shu asosda tuzilgan statistik hisobotlar, maktab pasporti, inventarlar daftari*

...ning maktabdan ketib qolishining oldini olishga, ba'zi bir o'quvchilarning ayrim fanlar bo'yicha va butun sinfning umumiy o'zlashtirish darajasiga, bir sinfda ikki yil qolib va o'zlashtirmaslikning oldini olish va unga barham berishga, rag'batlantirish va jazolash choralarini tasnifiga, maktab pedagoglar kengashining tavsifiga, maktabning sinfdan va maktabdan tashqari ishlarining qo'yilish holatiga, maktabning ota-onalar jamoatchilik, mehnat jamoalari, otaliq tashkiloti, savdo, qurilish, sog'liqni saqlash tashkilotlari, baza korxonasi, maktabdan tashqari bolalar muassasalari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikdagi ishlariga, maktabning o'quv-moddiy va texnik bazasini mustahkamlab borish masalasiga, uning moliya-xo'jalik va pedagogik targ'ibot ishlariga alohida e'tibor beriladi.

### **Nazorat savollari.**

1. Boshqarishda rag'batlantirishdan foydalanish usullari.
2. Kadrlarni ma'naviy jihatdan rivojlantirish usullari.
3. Maktab xujjatlarini tahlil qilish usullari.
4. Boshqarishda rag'batlantirishdan foydalanish metodlari.

#### **1.4. O‘quv muassasasini boshqarishning pedagogik asoslari**

Boshqarish deganda, odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Boshqarishga shuningdek, murabbiylik ishi ham taalluqli hisoblanadi. Boshqarish – bu mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida alohida bir hodim, guruxga ta’sir qilish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir. Ta’limni boshqarish jarayoni eng muhim va murakkab mehnat turi deb e’tirof qilingan. Ta’lim rivojlanib borgan sari, boshqaruv nafaqat rivojlanadi, balki murakkablashib ham boradi.

Ta’limni boshqarish masalalari bir tomondan jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojining obyektiv qonunlariga bevosita bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan rivojlanayotgan jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari talablariga ham ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Dasturda ta’lim tizimini boshqarish masalalariga ham katta e’tibor bergan. (4.6-band). Jumladan dasturga muvofiq:

- Uzluksiz ta’lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tarkibiy jixatdano‘zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo‘li bilan boshqarib boriladi. Barcha darajadagi ta’limni boshqarish organlarining vakolat doiralari «Ta’lim to‘g‘risida» gi Qonunga muvofiq belgilanadi. (IV-bo‘lim, 25-28 moddalar). ta’limning meyoriy-huquqiy bazasi rivojlantiriladi.

- O‘quv yurtlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini yuritish va ta’lim jarayonini tashkil etishda huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta’minlanadi.

- Ta’lim muassasalari attestatsiyadano‘tkaziladi va akkredita-siyalanadi hamda uning yakunlariga ko‘ra ta’lim sohasida faoliyat ko‘rsatish huquqi beriladi.

- Muassis tashkilotlarning, mahalliy xokimiyat organlarining, ishbilarmon doiralarning, jamoat tashkilotlarining, jamg‘armalar va xomiylarning vakillarinio‘z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatuv kengashlari tuzish orqali ta’lim muassasalarining samarali, jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 28-moddasida shunday deyiladi: Ta'lim muassasasini uning rahbari boshqaradi. Ta'lim muassasalarida qonun xujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

**Ma'lumki, jamiyat asosiy uch sohani:**



1.13 – rasm

**Shunga ko'ra boshqarishning ham uchta asosiy turi mavjuddir**



1.14 – rasm

Xozirgi vaqtda respublikaning moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash va ishlab chiqarish munosabatlarini shakllantirish iqtisodiyotni boshqarish oldiga qo'yilgan maqsaddir. Ijtimoiy-siyosiy boshqarish kishilarning turli jamoalar o'rtasidagi munosabatlarni ham, ana shu jamoalar ichida kishilar o'rtasidagi munosabatlarni ham boshqarishdir. Jamiyat va uning har bir a'zosining ma'naviy rivojlanishini boshqarish -

boshqarishning yana bir asosiy turidir. U umumiy oʻrta taʼlim maktablari, maktabgacha, maktabdan tashqari taʼlim muassasalari, xalq taʼlimi, oʻrta maxsus, kasb - hunar taʼlimi, oliyoʻquv yurtlari, malaka oshirish institutlari, fan, adabiyot, sanʼat, madaniyat kabi sohalarni boshqarishni oʻz ichiga oladi. Boshqaruv vazifalariga: rejalashtirish, tashkil qilish, sozlash, muvofiqlashtirish, nazorat va hisob-kitob qilish kiradi.

Barcha ishlab chiqarish hodimlarini, jumladan, maktab xodimlarini boshqaruv apparatiga va oʻquv tarbiya hamda maktabning boshqa ishlari jarayonida bevosita ishtirok qiluvchi hodimlarga boʻlish mumkin. Maktabda boshqaruv faoliyati bilan shugʻullanuvchi kishilari (maktab direktori, direktorning oʻquv tarbiya va xoʻjalik ishlari boʻyicha oʻrinbosarlar, tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi, metodik birlashma rahbarlari, kasaba uyushma tashkiloti raisi) boshqaruv apparatini tashkil qiladi. Boshqaruv apparatining bir qismini kishilarni boshqaruvchi shaxslar tashkil etsa, ikkinchi qismini ijrochilar tashkil qiladi.

**Ijrochi hodimlar ikki guruxga boʻlinadi:** mutaxassislar va texnik xodimlarga.

### Boshqarish tamoyillari (prinsiplari)



- |   |   |
|---|---|
| <input type="checkbox"/> Demokratik tamoyil.  | <input type="checkbox"/> Boshqarishda ijroni tekshirish tamoyili.             |
| <input type="checkbox"/> Boshqarishning ilmiylik tamoyili                           | <input type="checkbox"/> Boshqarishning rejalilik tamoyili.                   |
| <input type="checkbox"/> Boshqarishning jamoatchilik va shaxsan masʼullik tamoyili. | <input type="checkbox"/> Boshqarishning samaradorlik va tejamkorlik tamoyili. |

1.15 – rasm

### Boshqarish usullari



- Boshqarishning tashkiliy – ma’muriy usullari.
- Boshqarishning sotsial (ijtimoiy) – psixologik usullari
- Boshqarishning huquqiy usullari.



- Boshqarishning bevosita ko‘rsatma berish usullari.
- Boshqarishda rag‘batlantirishdan foydalanish usullari.
- Kadrlarni ma’naviy jixatdan rivojlantirish usullari.



- Boshqarishda kuzatish usuli.
- Boshqarishda suxbat usuli.
- Maktab xujjatlarini tahlil qilish usuli.

1.16 – rasm


### **Boshqarish aktlari ikki turga bo‘linadi:**

- normativ aktlar;
- shaxsiy aktlar.

#### **Maktab ichidagi boshqaruv tizimi.**

Maktab ichki boshqaruv tizimida ham boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimchalar mavjud. Maktab ichki boshqaruv tizimida direktor boshliq uning o‘quv, tarbiya va xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlari boshqariluvchi tizimchaga kiradi. Lekin bu tizimcha o‘z faoliyatida maktabdagi tashkilotlarga suyangan holda, ular bilan yaqindan hamkorlikda boshqaruv ishlarini amalga oshiradi. Boshqariluvchi tizimcha esa o‘z yo‘lida bir qancha boshqarish manbalariga bo‘linadi.

### **Ularga quyidagi manbalar kiradi:**



. 1.17 – rasm

### **Nazorat savollari**

1. Boshqarish haqida umumiy tushuncha.
2. Boshqarish turlari.
3. Boshqarish vazifalari.
4. Boshqarish tamoyillari.

*“Bilimga eltuvchi yagona yo‘l – bu faoliyatdir”.*

**Bernard Shou – ingliz dramaturgi,**

**Nobel mukofoti laureati**

## **II – BOB. O‘QUV TARBIYA ISHLARIGA RAHBARLIK QILISHNI REJALASHTIRISH VA TA’LIM JARAYONIGA TADBIQ ETISH**

### **2.1. Ichki boshqaruvning tashkiliy- pedagogik yo‘nalishlari**

Ta’lim muassasida o‘quv ishini tashkil etishning asosiy shakli dars xisoblanadi. Dars deb, bir hil yoshdagi o‘quvchilarning bitta guruxga o‘kituvchi rahbarligida aniq mavzu, aniq maqsad, aniq reja, aniq rejim va o‘quv vositalari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotga aytiladi. Demak, dars maktabdagi ta’limning asosi bo‘lib hisoblanadi. Chunki darsda asosiy ta’lim-tarbiyaviy vazifalar hal etiladi, izchil bilim berish yuzasidan turli ishlar olib boriladi. Dars o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatishi, dalillarni izoxlash, talqin orqali yangicha tafakkur o‘yg‘otishi lozim. O‘qituvchining serzahmat ishi sinfda darsdan boshlanadi. Har bir dars pedagogik mahorat ko‘rigi bo‘lishi, muayyan maqsadga erishilishi, har bir darsdan qoniqish va iftihor bilan chiqishi lozim. Demak, har bir maktab pedagoglar jamoasi ta’limning asosi – darsda samaradorlikka erishaylik, degan shior bilan ishlashi hozirgi kunning muhim talabidir.

**Hozir maktablarimizda qo‘llanilayotgan sinf-dars tizimi quyidagi tashkiliy shaklda olib boriladi.**

- Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko‘ra bir hil darajadagi bolalarning doimiy guruxiga ega bo‘ladi. Dars mashg‘uloti asosan boshlang‘ich sinflarda 40 minut, qolgan sinflarda esa 45 minutga mo‘ljallangan bo‘lib, qat’iy o‘quv jadvali orqali olib boriladi.
- Dars bevosita o‘qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.
- Dars o‘tilayotgan materialning mazmuniga qarab hilma-hil usul bilan olib boriladi, ta’lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o‘zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib uyushtiriladi.



## Darsga bo'lgan talablar

Dars, yuqorida aytib o'tilganidek, o'qitishni tashkil etishning o'zgarmas shakli emas, o'quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yo'llarini izlaydi. Bu sohada turli hil ko'rik tanlovlari, respublika miqyosida o'tkazilayotgan pedagogik o'qishlar hamda turli ilmiy metodik, amaliy seminar va anjumanlarda o'rta qo'yilayotgan ilg'or o'qituvchilarning fikr va mulohazalari diqqatga sazovordir.

### Dars quyidagi didaktik talablarga javob berishi kerak:



- Har bir dars ma'lum maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta bo'lmog'i lozim.
- Har bir dars mustahkam g'oyaviy-siyosiy va milliy qadryatlar yo'nalishiga ega bo'lmog'i lozim.



- Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog'langan bo'lmog'i lozim.
- Har bir dars hilma-hil usul, metod va vositalarda unumli foydalanilgan holda olib borilmog'i lozim.
- Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanmoq darkor.



- Har bir dars o'qituvchi va o'quvchining faolligi bilan belgilanmog'i lozim.
- Dars o'quv materiallarining mazmuniga oid ko'rgazmali qurollar, texnika vositalari va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.

2.1 – rasm

Darsdan kuzatish orqali har bir maktab direktori, uning o'quv tarbiya ishlari bo'yicha muvoynlari ta'lim-tarbiya ishlari holatini yaxshi o'rganish, mavjud kamchiliklarni tezda bartaraf qilish va ishni yanada yaxshilash uchun tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Shuningdek

dars kuzatish orqali ular har bir o'qituvchining g'oyaviy, ilmiy-metodik va umumiy pedagogik saviyasini va pedagogik madaniyatini aniqlaydilar. O'qituvchini dars jarayonida o'quvchilarning aqliy faoliyatini qay darajada tashkil etayotganligini aniqlaydilar. Fan asoslarini qay darajada bilim berayotganliklarini, qanday metodlar bilan ta'limni tarbiyaga bog'lash tamoyiliga amal qilayotganliklarni bilib oladilar

Bu masalalar muayyan maqsadga qaratilgan bo'lib, yagona umummaktab reja-grafigi asosida tashkil qilinishi maqsadga muvofiqdir. Maktab rahbarlari o'qituvchining har bir darsini o'z oldiga mavzu va maqsad qo'ygan holda kuzatsa, ilmiy, metodik, didaktik va umumiy pedagogik tahlil qilib bora olsagina bu borada yaxshi natijaga erishgan bo'ladi. Uning bu boradagi fikr va maslaxatlari o'qituvchi uchun dasturil amal bo'ladi va uni ustozim deb biladi, hurmat qiladi va e'zozlaydi. Maktab ichki nazoratini, dars kuzatish va uni tahlil qilish masalasini noto'g'ri tashkil qiladi, bu masalaga panja ortida qarashning oqibati esa maktabning ta'lim-tarbiya ishlariga salbiy ta'sir qiladi. Ana shuning uchun ham maktabda dars kuzatish va uni tahlil qilish masalasini to'g'ri tashkil qilish o'quv tarbiya ishlarini yanada takomillashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Maktab rahbarlari darsni kuzatish va tahlil qilishni rejalashtirgan vaqtlarida quyidagilarni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishlari mumkin: masalan: geografiya darslarida o'qituvchining o'quvchini faollashtirish va ularni geografiya atlasini, konturli karta yoki darslik bilan mustaqil ishlash yo'llarini o'rganish, tarix darslarida o'quvchilarni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashni amalga oshirishini o'rganish, matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirish borasida o'qituvchining ish tajribasini o'rganish adabiyot darslarida o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash masalasining qo'yilishini o'rganish, fizika darslarida o'qituvchi o'quvchilarga yangi mavzuni bayon qilishda o'zbek mutafakkirlarini ta'lim tarbiya bobida yozib qoldirgan o'gitlaridan foydalanishni o'rganish kabilar. Bu borada shuni ham ta'kidlash kerakki, maktab direktori yoki ilmiy bo'lim mudiri o'qituvchilarning darsga kirgan vaqtida o'quvchilarning bilimini aniqlash maqsadida o'zi yoki o'qituvchi orqali o'quvchilarga savollar ham berishi mumkin. Lekin bu ish uzoq vaqt cho'zilmasligi kerak. Bundan tashqari maktab rahbarlari

fan o'qituvchisiga biron mavzu ko'rsatib, shu mavzu yuzasidan yozma va kontrol ish o'tkazish taklif qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Dars kuzatishda maqsadni belgilash va tahlil qilishni rejalashtirish. Darslarga qatnashish maqsadini belgilash. Har bir darsga qatnashishdan oldin maqsadini belgilash zarurdir. Qo'yilgan maqsad darsda qatnashish va uni tahlil qilishini yanada natijaliroq xulosalarni aniqroq qiladi. Direktor (uning o'rinbosarlari) darsni tahlil qiladi, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini qo'yilgan maqsad nuqtai nazaridan kuzatadi. Aytaylik, direktorning ma'lum bir o'qituvchi darsida qatnashishidan maqsadi uning o'qitishning texnik vositalari bilan ishlashi metodikasini o'rganish bo'lsin. Darsni tahlil qila turib, direktor diqqatini aynan shu muammoga qaratadi. Biroq, bu hol u darsning boshqa jihatlariga e'tibor bermaydi degani emas. Tajribali direktor hamma narsani ko'radi, tahlillar daftarida belgilaydi va o'qituvchiga yo'l-yuriq ko'rsatadi, biroq asosiy e'tibor maqsadli muammoga qaratiladi va asosiy xulosalar u bo'yicha chiqariladi.

### **Darslarga qatnashish maqsadini belgilash ayrim misollarini ko'rib chiqamiz:**

*o'quvchilarga qo'yiladigan yagona talablarning bajarilishini tahlil qilish;*

*o'qitishning texnik vositalari, ko'rgazmali va tarqatiladigan materiallaridan foydalanish samaradorligi;*

*o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilish;*

*darsda o'qituvchiva o'quvchi hamkorligi;*

*darsni olib borish, uni tashkil qilishning umumiy uslubi bilan tanishish;*

*o'qituvchining dastur materiallarini o'zlashtira olmayotgan o'quvchilar bilan ishlash xususiyatlari;*

*o'qituvchining metodik usullari samaradorligini o'rganish; ilg'or ish tajribasini o'rganish va boshqalar.*

2.2 – rasm

**Darsni kuzatishga tayyorgarlik ko'rish Darsga qatnashish maqsadini belgilab, qo'yidagilarni bajarish zarur:**

- o'qituvchining dasturi, sharh mavzusi va darsni rejalashtirishi bilan tanishish; o'zaro qatnashishlar jarayonida ilmiy mudir va boshqa o'qituvchilar tomonidan uning avvalgi darslarida qatnashish natijalari bilan tanishish, ishda qanchalik hisobga olinganligini aniqlash uchun hulosa va tavsiyalarga e'tibor berish;
- fan bo'yicha darslikni, metodik adabiyotlarni o'rganish; dars tahlil qilinadigan sinf tarkibini tahlil qilish. Oldindan puxta tayyorlanish darsni yanada malakali taxlil qilishni ta'minlaydi.

### Darsni taxlil qilish.



•Dars bir hillikni va bir qolibga solishni yoqtirmaydi. Shu sababli tahlil shablon asosida, tayyor sxema bo'yicha bo'lmasligi kerak. Biroq, shu bilan birga darsni tahlil qilish murakkabdir, shuning uchun darsni baholash, uning samaradorligini aniqlash uchun mezon zarur.



•Dars sifatini, uning natijalari bo'yicha, o'quvchilar yangi bilim va ko'nikmalarni qanchalik ongli ravishda va puxta egallashlari bo'yicha mantiqiy baholash lozim. Biroq, bir mashg'ulotda har doim ham to'liq tasavvur hosil qilib bo'lmaydi. Darsni taxlil qilish uchun mezon tanlash qiyinchiliklari, dars sifati omillarining murakkabligidan kelib chiqadi.

2.3 – rasm

**Dars tahlili asosan o'quv mashg'ulotlarini tekshirish, o'rganish shaklida olib boriladi. Bunda qo'yidagilar ko'zga tashlanadi:**

- maktab direktori va uning o'rinbosharlarining maktabda o'qituvchi ishiga rahbarlik doirasidagi dars tahlili;

- o'qituvchining malakasini oshirishga yordam berishi, takomillashtirish, ularning tajribalarini o'rganish, ommalashtirish doirasidagi dars tahlili;


- yosh o'qituvchilar pedagogik jarayonida nazariy bilimlarni amalyotga qay darajada tadbqiq qilinayotganligini tekshirish va uning natijalarini o'rganish, shuningdek o'rgatish doirasidagi dars tahlili;

- o'qituvchilarning o'zaro bir-birlarining pedagogik usul va metodlarini o'rganish doirasidagi dars tahlili;

- o'quvchilar jamoasi yoki bir o'quvchining bilim doirasi, o'zlashtirish, axloq mezonlariga amal qilish, ota-onalar, tarbiyachilar va boshqalarning dars tahlili.

Demak, dars tahlilining asosiy maqsad va vazifasi ta'lim-tarbiya jarayonining to'g'ri yunalishi va bajarilishini nazorat etishgina emas, balki uni talablar darajasida amalga oshirishdir.

**Dars tahlilini shartli ravishda qo'yidagi asosiy 5 turga bo'lish mumkin:**



2.4 – rasm

**Ilmiy tahlil** - Berilayotgan bilimlarning ilmiy-nazariy jihati, o'quvchi bajarayotgan mustaqil ishning maqsadga muvofiq yo'nalishi jihatdan to'g'riligini aniqlash demakdir. *Bunda asosan qo'yidagilarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir:*

- O'qituvchining shu kungi darsga ilmiy-metodik jihatdan tayyorlanganlik holati;

- O'z mutaxassisligiga oid fan bo'yicha eng yangi ilmiy-nazariy axborotlar bilan qurollanganligi;

- Dars jarayonida ilmiy qoida va ta'riflarning to'g'ri bayon etilishi hamda ilmiy atamalarning uvchilar ongiga singdirib borilishi;
- Darslik materiallarining qo'shimcha adabiyot materiallari bilan boyitilishi;
- O'quvchi va o'qituvchi bajarayotgan laboratoriya, amaliy hamda mustaqil ishlarning ilmiy-nazariy jihatdan maqsadga muvofiqligi;
- O'quvlar mavzuni ilmiy jihatdan to'g'ri, qisqa va mukammal bayon etishini o'qituvchi tomonidan nazorat qilinishi;
- Dars davomida yangi mavzuni bayon etishini o'qituvchi tomonidan nazorat qilinishi, ta'limni tarbiya bilan bog'lab olib borilishi;
- O'qituvchi va o'quvchilarning nutq madaniyati.

**Metodik tahlil** - O'qituvchining dars jarayonida qo'llangan usul va metodlarining maqsadga muvofiq ekanligi ta'limning turiga va uning o'ziga xos xususiyatlariga qarab belgilanadi. O'quv materialini bayon qilish va tushuntirish jarayonida qo'llanilgan usullarning shu materialga mosligi yoki mos emasligini metodik tahlil davomida aniqlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'qituvchi darsda qo'llagan usullarining samaradorligini, rang-barangligi, namnaviyligi uning o'tgan yangi mavzu materialini o'quvchilarning qay darajada o'zlashtirganligi bilan belgilanadi. Shu boisdan har bir kuzatuvchi (o'qituvchi, direktor, ilmiy bo'lim mudiri, metodist yoki nazoratchi) dars tahlilining bu turiga alohida e'tibor bilan qarashi kerak.

**Dars metodlarini tahlil** - qilishda qo'yidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining tashkiliy shakllariga ko'ra:

- hikoya usuli;
- og'zaki bayon usuli;
- suhbat usuli;

**O'quvchilarning o'zlashtirishiga ko'ra:**

- o'qituvchining so'zlash usuli;
- ko'rgazmali qurollardan foydalanish usuli;
- darslik, konturli karta, diagramma yoki jadvallar bilan ishlash usuli;
- laboratoriya asboblari bilan ishlash usuli;

- texnika vositalaridan ( informatika elektron hisoblash texnikasi, kinofilm, diafilm,radio, televizor kabilar) foydalanish usuli;
- sinf doskasidan, geografiya, tarix yoki zoologiyaga tegishli bo‘lgan turli kartalardan foydalanish usuli kabilardir.

**Didaktik tahlil** - Bu o‘qituvchining o‘z darsini ta’lim tamoyillariga amal qilgan holda olib borganligi, ta’lim turlari samaradorligi va uni belgilovchi qonun va qoidalarning, atama nomlarining darsda qanchalik to‘g‘ri hamda mukammal bayon etilganligini tahlil qilish demakdir.

**Darsni didaktik tahlil qilishda qo‘yidagilarga e’tibor berish o‘rinli bo‘ladi.**

- Darsni o‘qituvchi tomonidanyangi pedagogik texnologiya asosida olib borilganligi;
- O‘qituvchi bayoning g‘oyaviy jixatdan ta’lim-tarbiya talablariga mos bo‘lganligi;
- O‘qituvchi fikrining sinf o‘quvchilari jamoasiga to‘la tushunarli bo‘lishi va bu bayonning izchil ravishda o‘quvchi ongiga yetib borishi;
- Barcha o‘quvchilarning o‘qituvchi berayotgan mavzuni yengil ravishda o‘zlashtirishlari;
- O‘qituvchi bayonida rivojlantiruvchi va muammoli ta’limning mavjudligi;
- O‘qituvchi fikrining izchilligi;
- Dars jarayonida ko‘rgazmali qurollardan,tarqatma materiallar,texnika vositalaridan foydalanishning qanchalik maqsadga muvofiqligi;
- Ekskursiya, tajriba, laboratoriya va amaliy ishlarda maqsadga erishilganligi;
- Darslik bilan ishlashning to‘g‘riligi;
- Misollarning ta’lim-tarbiya birligi asosida yo‘nalishi;
- Darsning ma’lum bir tizimda olib borilishi kabilar.

**Umumiy pedagogik tahlil** - Bu darsdagi hamma jihatlarining qisqa va o‘zaro bog‘liqligi tahlilidir. Bunda quyidagilarni hisobga olish o‘rinli bo‘ladi:

- O‘quv yoki sinf xonasining dars o‘tishga tayyorgarlik holati (dars jixozlari);
- O‘quv kabineti yoki sinf honasining sanitariya-gigiyena holati;

- O‘qituvchining dars mavzusi bo‘yicha ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ta’lim bobidagi maqsadi.

- O‘qituvchining mazkur darsga ilmiy metodik va umumiy pedagogik jixatdan qanchalik tayyorlanganlik darajasi.

- O‘qituvchining dars tashkil etishi va dars etablaridan to‘g‘ri foydalanganligi;

- O‘qituvchining o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishida pedagogik jixatdan namunalilik shaxs darajasiga ko‘tarila olganligi.

- O‘quvchilar bilimiga qo‘yiladigan bahoning adolatli va izohli bo‘lishi.

- O‘quvchilarning darsdagi faolligi, intizomi, mustaqil fikr yuritish hamda mazkur fan asoslarining o‘zlashtirib olganlik darajasi.

- O‘quvchilarning o‘qituvchi darsiga munosabati va hurmat bilan qarashi.

- O‘qituvchi darsdagi rahbarlik roli va ish uslubi, ta’limni tarbiyaga bog‘lashi.

- Dars jarayonida o‘lkashunoslik materiallaridan foydalanishi.

- Darsda o‘quvchining o‘zlashtirish sifati;

- O‘qituvchining darsda asosiy maqsadga erisha olganligi.

- O‘qituvchining ilmiy, metodik va umumpedagogik jixatdan yordamga muxtojligi kabilar.

### **Darsni psixologik-pedagogik jixatdan tahlil qilish.**

- Darsning aniq maqsad va vazifalariga bog‘liq ravishda tuzilishiga psixologik baho berish;

- Darsning mazmuniga psixologik jixatdan baxo berish;

- Darsda o‘quvchilar bilim faoliyatini namoyon bo‘lishi va uni boshqarish;

- diqqatni tashkil etish;

- idrokni tashkil etish va uning hususiyati;

- hotirani faollashtirish va uning rivojlantirilishi;

- o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini kuchaytirish;

- darsda o‘quvchilarning hotira tasavvuri, reproduktiv va ijodiy hayoli faollashdimi?

- O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘ziga hos hususiyatlarini hisobga olishni qanday amalga oshirdi?



- Darslarning o‘quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga ta’siri;
- Darsda o‘qituvchi shaxsi va faoliyatining tarbiyaviy ta’siri.

### Nazorat savollari




1. Dars ta’lim-tarbiya ishini tashkil qilishning asosiy shakli?
2. Darsga bo‘lgan didaktik talablar?
3. Darsni kuzatish va taxlil qilishdan maqsad nima?
4. Dars kuzatishda maksadni belgilash va taxlil qilishni rejalashtirish.

*“O‘qitishning hech bir ko‘rinishi yaxshi ma’ruza o‘rnini bosa olmaydi”.*

**A.N. Kononov – akademik**

## 2.2. O‘quv tarbiya ishlariga rahbarlik

«Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta’lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy yo‘nalishlarini anglab olish lozim. Ular quyidagi yo‘nalishlardir:

	<p>ta’lim mazmunini, tizimini isloh qilish; ta’lim-tarbiya boshqaruvini isloh qilish;</p>
	<p>ta’limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini yaratish; ota-ona, o‘qituvchi-o‘quvchining ta’lim jarayoniga bo‘lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;</p>
	<p>bu tub islohotlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi – yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish.</p>

2.5 – rasm

Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish – innovatsiyali pedagogikani maydonga olib chiqdi. «Innovatsiyali pedagogika» termini va unga xos bo‘lgan tadqiqotlar G‘arbiy Yevropa va AQSHda XX asrning Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti amerikalik innovatik olim

E.Rojers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi. Oliy maktab o'qituvchisining innovatsiyali faoliyati oliy maktab pedagogikasining bosh muammolaridan biridir.

Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir.

A.I.Prigojin innovatsiya deganda, muayyan ijtimoiy birlikka – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Tadqiqotchilar (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va b.) innovatsiyali jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri mikrosathi.

Birinchi yondashuvda, hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi. Ikkinchi yondashuvda, alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashidir. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayonining sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

- Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.

- Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.

- Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.

- Yangilikni yoyish, uni keng tatbiq etish bosqichi.

- Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

- Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.


- V.A.Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmuyi, uning maqsadi insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish, deb biladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsiyali texnologiyalar, pedagogik va ATni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari – interfaol metodlar, innovatsiyali texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. PT va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsiyali texnologiyalar PJ hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi. Ular pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

**Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:**



2.6 – rasm

PT masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiytadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, PT – bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan AKT, kompyuter, masofali o'qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. PTning eng asosiy negizi – bu o'qituvchi va talabaniing belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari tanlagan texnologiyalariga bog'liqligidir, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erishsa, o'quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlasa, ijodiy ishlasha, izlanishsa, tahlil eta olishsa, o'zlari xulosa qila olishsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yaratsagina, o'qitish jarayonining asosi yuzaga chiqadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonidagi PT – bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u talabaniing ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan PJdir.

O'qituvchi va talabaniing maqsaddan natijaga erishishda qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Shu bilan bir qatorda, o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, mavjud moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarni, AKT vositalarini, eng asosiysi, talabalarning imkoniyat va ehtiyojini hamda ularning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olish qobiliyatlarini hisobga olishi kerak. Shundagina kerakli va kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, talabani ta'limning markaziga olib chiqish lozim.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun navbatdagi dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchining darsning texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga ega, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik

xaritasi tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va ATdan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metod va usullarni bilish kerak bo'ladi. Har bir darsning rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida zamonaviy madaniyat va iqtisodiyotning pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etishga alohida ahamiyat berilgan.

Shu jihatdan ham umumiy o'rta ta'lim maktablarida davlat ta'lim standartlari bo'yicha ko'zda tutilgan iqtisodiy ta'lim va iqtisodiy tarbiyani takomillashtirish, uni o'quvchilar ongiga singdirib borib, iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muammosi dolzarbdir.

### **O'quv tarbiya tizimi mazmuni**


Ta'lim jarayonining ilmiy nazariy uslubiy va amaliy asoslarini, ya'ni ta'lim berish, bilim berish, o'qitish nazariyasi bilan, pedagogikaning mustaqil bo'lishi bilim didaktika shug'ullanadi. Ma'lumki, ta'limning asosiy maqsadi va vazifasi - shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson bilish faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi.

Ya'ni: ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdan iborat. Shu ma'noda ta'lim jarayoni ta'lim mazmuni negizida tashkil etiladi. Ta'limning asosiy mazmunini uni vazifalari oydinlashtiradi. Asosiy vazifalarga aqliy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi.

Ular ilmiy va texnikaviy bilimlar hamda ular bilan bog'liq bo'lgan malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ajdodlarimiz qoldirgan tarixiy va madaniy qadriyatlarda, hayotning ma'nosi, jamiyatda insonning tutgan o'rni, ta'lim-tarbiyasi, odob-ahloqi haqidagi hikmatli fikrlar borki, bular bugungi ta'lim taraqqiyoti uchun va milliy maktab yaratish borasida yoshlarimizda insonparvarlik, poklik, imon-e'tiqod, muruvvat,

vatanparvarlik, mehnatsevarlik, millatlararo do‘stlik munosabatlari, qahramonlik, mardlik singari tuyg‘ularini tarbiyalaydi.

### **Yangi demokratik jamiyat qurishda ta’limning mazmunini belgilashda jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib va quyidagilarga:**



2.7 – rasm

### **Shu nuqtai nazardan ta’lim tarbiya mazmunining tuzilishi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:**

- Ta’lim mazmunining davlat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yo‘nalishlariga bo‘liqlik tamoyili.
- Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tamoyili.
- Fanlararo kompleks aloqalar tamoyili.
- Kasblarga yo‘naltirish tamoyili.
- Ta’lim mazmunini tanlashda ustuvor va o‘zgaruvchan qismlarga bo‘lib tanlash tamoyili.
- Ta’lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish tamoyili.

### **Yangi demokratik jamiyat qurayotgan respublikamizda ta’limning mazmuni quyidagi yo‘llar bilan takomillashtirishni nazarda tutadi:**

- fan va tajribadagi eng yangi muvaffaqiyatlarni aks ettirish;

➤ ikkinchi darajali va ortiqcha murakkablashtirilgan materialdan qutilish;

➤ o'rganilayotgan fanlar ro'yxatini va materiallar hajmini aniqlash hamda o'quvchi-yoshlar, albatta, o'zlashtirib olishi kerak bo'lgan malaka va ko'nikmalarning optimal hajmini belgilash;

➤ o'quv fanlariga oid asosiy tushunchalarni va yetakchi g'oyalarni juda ham aniq bayon qilish;

➤ o'quvchilarning pedagogik texnologiyalar: kompyuter, elektron pochta, boshqa bilimlar bilan qurollantirish va shu texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari hosil qilish.

**Yuqoridagilaran kelib chiqqan holda, shuni ham ta'kidlash kerakki, ta'lim tarbiya mazmunini belgilashda quyidagilarga alohida e'tiborni qaratish lozim:**

1. O'quvchilar hozirgi sharoitda ijtimoiy foydali mehnat jarayoniga tayyor bo'lmoqlari kerak. Maktabdanoq ularning ishlab chiqarishning barcha jabhalari tamoyillaridan ma'lum darajada voqif qilmog'i lozim.

2. Ta'lim tarbiya mazmunining markaziy komponenti o'zida g'oyalarning eng maqbul majmuasini eng umuminsoniy qadriyalarni mujassamlashtirishi zarur, ya'ni taniqli ruhshunos olim L.S.Vigotskiy jamiyat taraodiyotidan ilgarilab ketgan ta'limgina samaradorli bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan edi.

3. O'zbek xalqining o'ziga xosligini, uning etnomadaniy, etnopsixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda umumiy madaniyatni shakllantirish.

4. Omilkorlik va ijodiy talabni shakllantirish. Xalq pedagogikasi va jahon pedagogikasi vositalari hamda boyliklaridan foydalangan holda o'quvchilar tafakkurini erkinlikka chaqirish, uni takrorlashdan yangisini yaratishga o'rgatish kerak.

5. O'quvchilarga ommaviy pedagogik fikrlashni o'rgatish, ibtidoiy pedagogik bilimlar berish lozim. Demak, ta'lim tarbiya mazmuni qurilishining bosh maqsadi - bolalar ko'z o'ngida dunyo ilmiy manzarasini ochib borish, uning har tomonlama rivojlanishni ta'minlash, ularni hayotga tayyorlab borishdan iboratdir.

Ta'limni ijtimoiylashtirish ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni, yuksak darajadagi ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni, shaxsni tarbiyalash va har tomonlama kamol toptirishga ustuvorlik bergan holda ta'lim va kasb dasturlarining mazmunini qayta

ko‘rib chiqishini taqozo etadi. «Mantiq», «Nutq madaniyati va «notiqlik san‘ati», «Jahon san‘ati tarixi», «Jahon dinlari tarixi»dan iborat maxsus kurslarni joriy etish ta‘lim jarayonini ijtimoiylashtirish doirasidagi yondashuvlardan biridir. Ta‘limni demokratiyalashtirish jarayoni ta‘lim muassasalarida o‘zini o‘zi boshqaruv shakliga o‘tishni faollashtirishni, o‘quv yurtlarining ta‘lim va tarbiya uslublarini tanlashda mustaqillikni kengaytirishni taqozo etadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ushbu vazifalar o‘z o‘rnini topgan. Bu yo‘nalishda jamoat tashqilotlari, ayniqsa yoshlar va bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq muassasalarning roli kuchaytirilib borilishi talab qilinadi. Maktablar, litseylar, kollejlari va oliy ta‘lim muassasalaridagi ta‘lim jarayonini tashkil etishga ilg‘or o‘quv dasturlarini, marosimlar, bayram tadbirlarini, urf-odatlarini, pedagoglar va o‘quvchilarning «pedagogik hamkorlik»ka asoslangan yangi munosabatlarini singdirib borish lozim bo‘ladi.

### **Nazorat savollari.**

1. Ta‘lim tarbiya mazmuni haqida so‘zlab bering.
2. Ta‘limdagi dars ishlanmalari.
3. O‘quv reja, dastur nima?
4. Ta‘lim tizimini rivojlanish bosqichlari.

*“Hunarni asrabon netkumdir oxir,  
Olib tufroqqamu ketgumdir oxir”.*

**Alisher Navoiy**

### **2.3. O‘quv muassasi ishini rejalashtirish**

O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to‘g‘risidagi qonunlariga muvofiq O‘zbekistonning ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini masalasini rivojlangan mamlakatlar darajasida hal etishga qodir, yuksak darajada ma‘naviy, madaniy va ahlokiy sifatlarga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash oliy ta‘lim tizimining vazifasi hisoblanadi.

**Quyidagilar oliy ta‘lim tizimining asosiy vazifalari hisoblanadi:**



- davlat ta'lim standartlariga muvofiq zamonaviy ta'lim-kasb dasturlari asosida sifatli o'qituvni ta'minlash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash;
- yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlarni, jumladan xorijiy ilmiy markazlarda tayyorlash;
- mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqboli, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya, iqtisod va madaniyat zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlashning tashkil etilishi va usulini muntazam takomillashtirish;
- ta'limni individuallashtirish, masofadan o'qitishning yangi pedagogik va informatsion texnologiyalari, vositalarini joriy etish;
- Mustaqillik g'oyalari sodiqlik, Vatanga, oilaga va atrof muhitga muxabbat ruhida, milliy uyg'onish mafkurasi hamda umuminsoniy qadriyatlarni chuqur his etish asosida oliy ta'limning gumanitar yo'nalishini, yoshlar tarbiyasini ta'minlash;
- ilmiy-pedagog xodimlar va ta'lim oluvchilar ilmiy tadqiqotlari hamda ijodiy faoliyatlari vositasida fan-texnika va texnologiyani rivojlantirish olingan natijalardan ta'lim jarayonida va tarmoqlarda foydalanish iqtisodiyoti;
- ta'lim fan va ishlab chiqarishning samarali uyg'unlashuvchi usullarini amaliyotga tadbiiq etish;
- ta'lim xizmati ko'rsatish bozorida raqobat muhitini yuzaga keltirish;
- rivojlangan mamlakatlar bilan oliy ta'lim sohasida o'zaro foydali alokalarni rivojlantirish;

### **Ta'lim muassasi ishini rejalashtirish**

- O'zbekiston Respublikasidagi boshqa davlatlar ta'lim muassasalariga ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini olish uchun ruhsat berish;
- ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash; davlat granti miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul tartibini belgilash; davlat oliy ta'lim muassasalari rektorlarini tayinlash;
- ta'lim olayotganlari akkreditatsiyalagan bir ta'lim muassasasidan bosqasiga ko'chirish tartibini belgilash; qonunchiliklarga muvofiq boshqa vakolatlar.

**Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli** davlat idorasi (OO'MTV), uning vakolatiga quyidagilar kiradi: ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

ta'lim va boshqa muassasalarga metodik rahbarlikni amalga oshirish va rahbarlik qilish;

davlat ta'lim standarti talablari, ta'lim darajasi va mutaxassislarni kasbiy tayyorlash sifatiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash; o'quv jarayoniga o'qitishning ilg'or shakllarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitishning informatsion vositalarini joriy etish;

o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar yaratish va nashr etishni tashkil etish;

ta'lim olayotganlarni yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi va ta'lim muassasalaridagi ekspert to'g'risidagi nizomlarni ishlab chiqish;

pedagog xodimlar tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga davlat oliy ta'lim muassasalariga rektor tayinlash to'g'risidagi taklif kiritish; qonunchiliklarga muvofiq boshqa vakolatlar.

Oliy ta'lim sohasidagi boshqaruv bilan shug'ullanuvchi shaxslarga yuksak darajadagi mas'uliyatlik, vakolatlik hamda tartib, ma'muriy qoidalarni ichki va tashqi vositalar yordamida muntazam samarali baholash qobiliyati xos bo'lish lozim.

**Oliy ta'lim muassasalari Davlat OTM bevosita** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadigan rektor tomonidan boshqariladi. Davlatga aloqadorsiz OTMda rektor ta'sischi (mulk egasi) tomonidan tayinlanadi.

- Rektor «Oliy ta'lim to'g'risida»gi nizom ga muvofiq ta'lim muassasasining ish natijalari uchun mas'uldir. U O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ta'lim muassasasi nomidan faoliyat ko'rsatadi, barcha idoralar, muassasalar va korxonalar bilan uni namoyon etadi, mulkni tasarruf etadi, shartnomalar tuzadi, ishonchnoma beradi, bankda ta'lim muassasasining hisob raqamini ochadi, kreditlarni taqsim qiluvchi hisoblanadi.

- Rektor o'z vakolati doirasida quyidagilarni amalga oshiradi:

- barcha xodimlar, tinglovchilar va boshqa ta'lim oluvchilar uchun buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

- bosh muhosibni ishga tayinlaydi va undan bo'shatadi; ilmiy-tadqiqot, tajriba-eksperiment va boshqa ta'lim muassasasi tarkibiga kiruvchi tashkilotlar, bo'linmalar vakolatini belgilaydi;

- ishchi, xizmatchilar, shuningdek ilmiy-pedagog xodimlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan va mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ishdan bo'shatishni amalga oshiradi;

- ta'lim muassasasi xodimlari lavozim maoshiga ustama va qo'shimchalar belgilaydi; ichki tartib qoidalarini kasaba uyushmasi yoki boshqa vakolatli organ xodimlari bilan kelishib tasdiqlaydi;


- qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi. Ta'lim muassasasi faoliyati asosiy masalarini ko'rib chiqish uchun unda Ilmiy kengash tuziladi. Uning tarkibi, vakolati, shakllantirish taritibi va faoliyati ta'limni boshqarish bo'yicha davlat vakolatli idorasi – OO'MTV tasdiqlagan «Ilmiy kengash to'g'risida»gi nizomda belgilanadi.

Jamiyat ta'limning barcha sohalariga, shu jumladan oliy ta'limga ham yordam ko'rsatish kerak, chunki u iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida muhim va jiddiy o'rin tutadi.

Oliy ta'limning boshqarish tayanchlari

Boshqarishning asosiy maqsadi oliy ta'lim muassasalarining tuzilmaviy vazifasi o'qitishning, oliy kadrlar tayyorlashning va ilmiy tadqiqotlar oliy darajasini mustahkamlash, shuningdek, jamiyatga xizmat qilishdan iborat bo'lishi kerak .


### **Jahonda ta'limni boshqarishning ikki tizimi shakllangan:**



2.8 – rasm

Boshqarishning markazlashgan tizimi Fransiya va sobiq ittifoqda yaqqol namoyon bo'lgan. Mazkur tizimga muvofiq ta'lim dasturlari va o'quv rejalari, pedagog kadrlarni tayinlash, ko'chirish va ishdan bo'shatish, ta'lim muassasasidagi tartib va hamda b.lar. Maorif vazirligining meyoriy hujjatlar, qarorlar, bo'yruqlar, farmoyishlar va yo'riqnomalari bilan qat'iy chegaralangan. Shundan markazlashgan boshqaruv muayyan vaqtgacha fransuz ta'lim tizimining afzalligi bo'lib kelgan. Biroq, ta'lim muassasalarining miqdori oshishi bilan boshqaruv tizimi sezilarli darajada kengayadi va xodimlarning tashabbusini cheklab qo'yadi. Shuning uchun hozirgi paytda bu tizim ta'lim muassasalariga erkinlik berish, markazlashishidan chetlashish tomon qayta qurilmoqda. Markazlashmagan boshqaruv tizimi, AQSH, Angliya, Germaniya va boshqa taraqqiy etgan mamlakatlarda barqaror shakllangan. Bu tizim ta'lim muassasalariga keng muhtoriyat berishni ko'zda tutadi. Germaniyada ta'lim tizimi har bir federal yer tasarrufidir. Biroq, federal yerlar o'rtasida ta'limning turlarini uyg'unlashtirishni ta'minlash uchun federal organ – Yer ta'lim va madaniyat fazirlari konferensiyasi mavjud, u ta'lim siyosati bo'yicha kelishuv tavsiyalari ishlab chiqadi.

**Ta'lim, fan, tadqiqotlar va texnologiya federal vazir siyosida federal hukumat quyidagilarga javobgardir:**



## Boshqaruv tizimining muhim belgilari, afzalliklari va kamchiliklari

Boshqaruv tizimi	
Markazlashgan	Markazlashmagan
1	2
Markazlashtirilgan rahbariyat ta'lim muassasalarida uzoqda (to'g'ri va ko'chma ma'noda)	Rahbarlik hokimiyati boshqaruvning mahalliy idoralari va ta'lim muassasalari taqsimlangan
Ta'lim siyosati markazlashtirilgan va bevosita bajaruvchilar bilan kamdan-kam holda kelishib qabul qilinadi	Ta'lim siyosati mintaqa, jamiyat va o'quv muassasasining rivojlanishi qanoatlantiruvchi umumiy qaror qabul qilinadi
Ta'lim siyosati hamisha «rahbar har doim xaq va bizga farmoyish berishi kerak» qabilida olib boriladi	Ta'lim siyosati mahalliy miqyosdagi siyosat bo'lganligi uchun mahalliy hokimiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishligi tufayli o'z tadbiqini topadi
Bo'ysinuvchi tashabbus ko'rsatishdan qo'rqadi: boisi «gapirdim tegdi boshimga tayoq»	Tashabbus va eksperimentlar mahalliy miqyosda keng qo'llab-quvvatlanadi va rag'batlantiriladi
Rahbar uslubi avtokratik – yuqoridan pastga	Rahbarlik uslubi demokratik vakolatning bir qismi xodimlarga qaror qabul qilishda berib qo'yiladi
Samarasiz ish	Qaror qabul qilishda qatnashgan xodim mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga va samarali ishlashga tayyor
Kommunikatsiyaning asosiy turi: yuqoridan pastga, qoidaga ko'ra, rahbar monlogi	Ko'pyoqlama aloqa, kasb burchi va samarali muhokama
Xatti-harakatning tajovuzkor, qing'irlik va sustkashlik turi keng tarqalgan. Ko'pchilik bo'ysinuvchilar o'z huquqini himoya qilishdan qo'rqadilar	Bo'ysinuvchilarning o'zini dadil tutishi. Inson huquqlarini hurmat qilishga zarurat sifatida qarash
Hokimiyatning bitta qo'lda to'planishi bo'ysinuvchilarga nisbatan adolatsizlikka, mahalliychilik va o'zboshimchalikka, lavozimni suiste'mol qilishga olib keladi	Hokimiyatning taqsimlanishi inson huquqlarini himoya qilish va bir xil imkoniyatlar berish rahbariyat tomonidan adolatsizlik, xizmat vazifasini suiste'mol qilishlikni bartaraf etadi
Boshqaruv vazifalarini hal qilishda yagona ko'rsatma	Boshqaruv vazifasini hal qilish bo'yicha takliflarning turli tumanligi va ulardan eng ma'qulini tashlab olish

2.1 - jadval

## **Nazorat savollari.**

- 1 O'quv muassasi ishini rejalashtirish
2. Ta'lim muassasi ishini rejalashtirish
3. Jahonda ta'limni boshqarishning shakllari
4. Boshqaruv tizimining muhim belgilari

### **III – BOB. O‘QUV MUASSASALAR PEDAGOG XODIMLAR FAOLIYATINI O‘RGANISH, ICHKI BOSHQARUVI TIZIMIDA NAZORAT OLIB BORISH**

#### **3.1. O‘quv muassasalarini pedagog xodimlar bilan ta'minlash va ularning malakasini oshirish ishlariga rahbarlik qilish**

#### **O‘quv muassasalarini pedagog xodimlar rahbarlik qilish va boshqarish**

Oxirgi yillarda inson omiliga e'tiborning ortib borishi munosabati bilan boshqarish masalalariga ham qiziqish kuchaydi. Shu asosda ta'lim tizimida maxsus bo'limi — **boshqarish** paydo bo'ldi. Boshqarish ta'lim tizimida shunday jarayonki, u boshqaruv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni, shaxs va shaxslar guruhi tomonidan boshqa guruhlar faoliyatini samarali tashkil etish va birgalikdagi faoliyatini amalga oshirishning ta'limdagi mexanizmlarini o'rganadi.

Boshqarish muammolari ham bir qancha fanlar tomonidan o'rganiladi, jumladan, falsafa, tarix iqtisod, xuquqshunoslik va psixologiya uning o'ziga xos tomonlarini ochish bilan shug'ullanadi. Ta'limni boshqarishni ham ob'ekti, ham sub'ektini o'rganadi. Pedagogik tadqiqotlarda o'rganiladigan olimlar jamoasi, alohida shaxs, ularning holatlari, ulardagi ayrim jarayonlar va vazifalari boshqaruv ob'ekti deb aytiladi. Boshqaruvning sub'ekti o'rganilganda esa odatda boshqaruvchi shaxs yoki odamlar guruhi nazarda tutiladi.

Pedagogikada ko'proq boshqaruvchi faoliyatining ta'lim asoslarini o'rganadi va shu asosda buysunuvchilar ishlarinn samarali tashkil etish, aniq va to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun qanday xolat va jarayonlarni o'zida tarbiyalash lozimligi kabi qator muammolarni yechadi. Masalan, konkret hayotiy sharoitlarda agar boshliq majlis olib borayotgan bo'lsa, har bir so'zga chiquvchilarning fikrlari, ma'ruzalari va hokazolar orqali ularning psixologik holatlari aniqlanadi, yangi ish dasturlari ishlab chiqariladi, qabul qilingan qarorlarga ko'ra boshliqning va xodimlarning har biriga alohida ilmiy ko'rsatmalar va maslahatlar beriladi.

Boshqaruv boshliq faoliyatini analiz qilganda asosiy diqqatni boshqarish uning ehtiyoji yoki qobiliyatlariga mos yoki mos emasligi, qaysi individual xususiyatlariga ko'ra u boshliq darajasiga ko'tarildi, ishni

muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun u boshqaruvning qay usullaridan foydalanyapti, xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatish maqsadida u qanday ta'sir uslublarini qo'llayapti kabi qator masalalarga qaratadi. Boshliq bo'lish ishiga turli shaxslarning munosabatlari har xil, chunki kimdir boshliqda bo'lgan imtiyozlarga beriladi, kim uchundir unga berilajak huquqlarni afzal ko'rish xos, kimgadir yuksak mas'uliyatlarni bo'yinga olish ma'qul keladi. Shaxslarning boshliq funksiyalari haqidagi tasavvurlari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, boshliqdan real sharoitlarda odamlar guruhini aniq maqsad asosida faoliyatga yo'llash, ularga bosh bo'lish, turli tadbirlarni amalga oshirish, obro'ga ega bo'lish, har bir qilingan ish uchun javobgarlikni o'z buyniga olish kabi ko'plab sifatlarning mujassam bo'lishi talab qilinadi.

### **O'quv muassasalarini pedagog xodimlarni nazorat qilish**

Ichki nazorat o'quv muassasasi o'quv moddiy texnik manbaiga, ta'lim tarbiya, sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim tarbiyasi, tarbiya ishlariga, o'quvchilarni darsliklar bilan ta'minlash kabi qator masalalarga tegishli bo'lishi mumkin. Chunki nazorat ishi orqali har biro'quvchi, maktabning holatini bilib boradilar, maktab ishida nazorat muayyan maqsad reja va mavzu asosida amalga oshiriladi. O'quv muassasasi ichki nazorati bo'yicha ishlangan rejani choraklik, yarim yillik, o'quv yiliga munjallab turish mumkin hamda avgust oyida o'tkaziladigan pedagogik kengashda muxokama qilinib tasdiqlanadi.


#### **Ichki nazorat rejasi quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi.**

1. O'quv muassasasi ning hamma ko'rsatkichlari bo'yicha rejaning bajarilishi;
2. O'quv tarbiya ishlarining ahvoli;
3. Sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlar;
4. O'quv muassasasining jamoatchilik va maktabning otalik tashkilotlari bilan olib boriladigan ishlar;
5. O'quv muassasasining pedagog xodimlari bilan ishlashi;
6. O'quv muassasasi xujjatlarini yuritish;
7. O'quv muassasasi bo'quvchi yoshlar tashkilotining ishlari;
8. O'quv muassasasining moliya xo'jalik ishlari;
9. O'quv muassasasi oila va jamoatchilik hamkorligi;



10. Guruh murabbiyligi ishi.

**O‘quv muassasasining ichki nazoratini o‘rganiladigan masalaga qarab uch guruhga bo‘lamiz.**



3.1 – rasm

Tematik nazorat aniq mavzu asosida yoki ayrim fanlarning o‘qitilishini nazorat qilish. Yoki 2-3 talabani ishini metod birlashma ishini o‘rganish ham tematik nazoratga kiradi. O‘quv muassasasi ishlarini kompleks nazorat qilish ta’lim tarbiya va xo‘jalik ishlarini keng kamrab olgan, to‘liq pedagogik ma’nodagi masalalarni o‘rganishni maqsad qilib qo‘yadi.

1. Maktabda aniq fanlarning o‘qitilishi va uni yanada yaxshilash;
2. Maktabda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarining amalga oshirish va uni yanada takomillashtiri;
3. O‘quvchilarni darslik va o‘quv anjomlari bilan ta’minlanganlik, holati va bu masalalarni yanada yaxshilash;
4. Maktab faoliyatida umumiy o‘rta ta’limni hozirgi davr talablari asosida amalga oshirishning ahvoli.

O‘quv muassasasining ichki nazorati xilma-xil shaklda ham olib borilsa, uning asosiy variant o‘quv reja va dasturlarning bajarilishi, o‘qitishning g‘oyaviy siyosiy darajasining, ta’limning dars jarayonida tarbiya bilan ifodalanishi, o‘qituvchilarning darsga puxta tayyorlanish, o‘qituvchilarning darsda qanday usullardan foydalanishi, o‘quvchilarning bilim darajalarini doimo nazorat qilish kiradi. Ichki nazorat tizimida imtixonlar davri maktab hayotida mas’uliyatli davr

hisoblanadi. Imitxonlarni o‘tkazish natijasida o‘quvchilarning bilim malaka va ko‘nikmalari sifatiga umumiy baho berish mumkin.

O‘quv muassasasi ichki nazoratining eng yaxshi usullaridan biri statistik tahlildir.

O‘quv muassasasida qanday ish qilinadilarida statistik tahlil usulidan foydalanish mumkin.



3.2 – rasm

Respublikamiz maktab rahbarlaridan ayrimlari o‘quv muassasasini boshqarishda ichki nazoratni amalga oshirishga yuzaki karab kelayotganlari ham mavjud. O‘zbekiston Respublikasi ta’limi vazirligi o‘quv muassasalar boshqarmasining viloyat va tuman xalq ta’limi bo‘limlarining joylardagi ta’lim faoliyatiga taaluqli bo‘lgan tekshirish aktlari mazkur fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi. Ayrim o‘quv muassasasida ichki nazorat masalasi, boshqaruv aqidalariga to‘liq rioya qilingan holda tuzilgan reja asosida amalga oshirilmagan. Ayrim o‘quv muassasasida da jamoatchilik tashkilotlari otaliq tashkilotlari bilan hamkorligi yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan. Ayrim o‘quv muassasalarda hukumatimizning qarorlar ijrosi muhim o‘rin topa olmay qolyapti. Ayrim o‘quv muassasalarda ichki nazora to‘qituvchilarning o‘zaro dars kuzatishlari nazoratga olinmagan. Har bir o‘quv muassasasida ichki nazorat ishini reja asosida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish maktabdagi ta’lim tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishga yordam beradi.

## Nazorat savollari

- 1 O'quv muassasasida ni ichki boshqaruvi tizimida ichki nazoratning tutgan o'ri;
2. Ichki nazoratni rejalashtirish va amalga oshirish;
3. O'quv muassasasining ichki boshqaruvi tizimida ichki nazoratning tutgan o'ri, pedagogik ahamiyati.

*“Yomon o'quvchi yo'q, balki uni o'qitishni uddalay olmaydigan noshud o'qituvchilar bor, xolos”.*

**XXI asrda aytilgan fikrlardan biri**


### **3.2. O'quv muassasasini ichki boshqaruvi tizimida axborotlar to'plash va uni pedagogik tahlil qilish**

O'quv muassasasini ichki boshqaruvi tizimida axborotlar to'plash va uni pedagogik tahlil qilish, inson ongi, tafakkuri bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushuntirish mumkin bo'lmagan ichki boshqaruvi tizimini ifoda etadi. Uning o'ziga xos jihati – tarbiya muammosini ham qamrab olishidir.

Demak, ichki boshqaruv texnologiya samaradorligi inson o'zining ko'p qirrali tomonlari bilan unda qanchalik to'liq namoyon bo'lyapti, uning psixologik-kasbiy jihatlari, ularning kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinyapti, degan savollarning yechimiga bog'liq ekan. Shu jihatdan olganda, shaxsning rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashxislash kabi imkoniyatlarga ham ega bo'ladi. Bu esa p o'quv muassasasini ichki boshqaruvi tizimida axborotlar to'plash va uning pedagogik texnologik jarayon bilan ishlash qobiliyatiga bog'liq.

Pedagogning belgilangan o'quv-tarbiya vazifalarini me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan talablar asosida yo'l qo'yiladigan chegaraviy ko'rsatkichlar doirasida bajarish holatini ishlash qobiliyati deb sanash mumkin. Demak, u yoki bu fan o'qituvchisining mahoratini aniqlashda uning faoliyati davlat ta'lim standartlari talablariga va pedagogik shartlarga nechog'lik mos kelishi nazarda tutiladi.

**Pedagogik nashrlarda pedagog faoliyatini baholash uchun qator ko'rsatkichlar tavsiya etiladi, jumladan:**



3.3 – rasm

Umuman olganda, pedagog uchun asosiy kasbiy-me'yoriy ko'rsatkich – bu, birinchi navbatda, o'z holatini PJda bunyodkor sifatida his etishi va anglab yetishidir. Pedagog o'zining ish faoliyatiga xususiy kasbiy yaroqliligini, pedagogik voqelikdagi o'z o'rnini baholay olmas ekan, undan hech qachon ijodkorlikni talab qilib bo'lmaydi. Demak, pedagogik faoliyatga kirib kelayotgan har bir inson o'zining unga moslanuvchanligini, shu kasbga layoqati, qiziqishi borligini to'liq tasavvur etishi kerak.

Ta'lim texnologiyasining asosiy maqsadi ham, o'quv predmetlarini to'liq o'zlashtirishga mos keladigan ta'lim loyihasini yaratishdir. Bunday loyiha hozirgi zamon psixologiyasi, didaktikasi va pedagogik amaliyotining asosiy va ilg'or g'oyalariga tayangan holdagina yaratiladi.


Ta'lim – boshqariladigan jarayon bo'lib, uning natijasi, ko'p jihatdan, tayyorlangan didaktik loyihaga bog'liq. Didaktik loyiha esa ta'lim texnologiyasining mahsulidir. Talabalarning bilish faoliyatini

didaktik loyihaga ko‘ra boshqarish ta‘lim texnologiyasining pedagogik asosi sanaladi.

Har qanday jarayonning boshlanishi va yakuni mavjud bo‘lganidek, didaktik loyihani amalga oshirishning ham kirish va chiqish nuqtalari bor. Ikki nuqta orasiga juda ko‘p nuqtalarni joylashtirish mumkin bo‘lganidek, didaktik loyihani amalga oshirish ibtidosi bilan intihosigacha bo‘lgan masofada ta‘limning samarali usullari, vositalari ko‘p topiladi. Yerdan ta‘lim texnologiyasi eng samarali usul bo‘lib, ta‘limning samarali shaklini tanlashda o‘qituvchiga yordamga keladi.

Demak, maqsaddan etalonga yetib kelguncha o‘qituvchi (pedagog) va talaba ongi juda ko‘p hodisalar bilan to‘qnashadi. Ta‘limga texnologik yondashish – bu ma‘lumot va ta‘lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo‘li bilan o‘quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o‘qituvchi (pedagog) va talaba maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida (o‘qitish maqsadi, o‘qish maqsadi) ta‘limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta‘limni loyihalash va amalga oshirish yo‘llari bilan mo‘ljaldagi etalonga erishishdir.

**Umuman, ta‘lim texnologiyasi haqida gap ketganda o‘zaro daxldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug‘iladi:**



3.4 – rasm

Bu hodisalarning birinchi va ikkinchisi an'anaviy ta'lim tajribasida ham uchraydi. Ta'lim texnologiyasining an'anaviy ta'lim tizimidan farqi shundaki, ta'lim natijasi va uning etalon darajasida bo'lishi doimo o'qituvchi (pedagog) hamda talabaning diqqat markazida turadi. O'qituvchi (pedagog) ta'lim natijasini tez-tez tekshirib, talabalarni o'zlari erishgan yutuqlardan ogoh qilib turadi va talabalar o'zlari erishgan yutuq va kamchiliklarni anglab, yutuqlarini yanada ko'paytirishga, kamchiliklarini esa bartaraf etishga harakat qiladi. Talabalar ta'limning zaruriyligini, ular ta'lim jarayonining haqiqiy subyektga aylangan paytidagina his etishadi.

**Ta'lim texnologiyasi bo'yicha qilinadigan ishlar ikki qismdan iborat:**



3.5 – rasm

### **Ta'lim loyihasini tayyorlash**

Loyiha o'qituvchi yoki ekspert a'zolari tuza olish faoliyatining mahsuli bo'lib, qator umumiy xususiyatlarga ega. Loyiha asosida o'qituvchi (pedagog) va talabalarning kelajakda birgalikda amalga oshiradigan faoliyati yotadi. Ta'lim loyihasi ma'lumot mazmunini davlat standartlari talablari asosida tahlil etishdan boshlanadi. Tahlil ma'lumot mazmuni elementlari (bilimlar, ko'nikma va malakalar va ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) dasturlarda qanday berilganligi va darsliklarda qanday aks ettirilganligiga qaratiladi. Keyin ta'lim mazmuni o'rganiladi, u yoki bu mavzuni o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad, ta'limning didaktik

maqsadi, o'qituvchi (pedagog) va talabalarning maqsadi maqsadlarni amalga oshirish va hisobga olish varaqalari, beriladigan uy ishlari miqdori, mavzular bo'yicha o'tkaziladigan test savollari, reyting nazorati bosqichlari, etalon darajasida o'zlashtirish usuli oldindan belgilab qo'yiladi. Bu ishlarning barchasi ongda ta'lim modelini yaratishga olib keladi.

### **Ta'lim loyihasini amalga oshirish**

**Ta'lim loyihasi bevosita ta'lim sharoitida amalga oshiriladi. Bu jarayonda quyidagi ishlarga alohida e'tibor qaratiladi:**

- o'rganilayotgan mavzu bo'yicha maqsad, vazifalar bilan talabalarni oldindan tanishtirish, muammo va topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil bajariladigan ishlarni, ularni bajarish tartibi, vaqtini e'lon qilish, mavzuni to'liq o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berish, o'zlashtirish me'yorlarini aytib berish;

- talabalarni faol, mustaqil faoliyatga rag'batlantirish, ular diqqatini bo'lim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday o'rganish zarurligini aytib berish, bilishga qiziqish uyg'otish, o'qish-o'rganishga havas, muammolarni bajarishga ehtiyoj uyg'otish, emotsiyalar, tafakkur hodisalari, bilimlarni o'quv holatlariga tatbiq etish yo'llari orqali mavzu bo'yicha ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to'liq o'zlashtirishga oid o'zgarish, qo'shimcha, tuzatishlarni belgilash;

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha to'plangan bilimlarga ishlov berish.

**Ta'lim jarayoni stoxastik xarakterga ega. Unda quyidagi kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan, favquddodda va tasodifiy hodisalar uchrab turadi:**


- o'rganilgan bilimlarga ishlov berish jarayonida joriy nazorat natijalariga asoslanib loyihaga yangi o'zgarish, qo'shimcha va tuzatishlar kiritiladi;

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha umumiy xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni murakkab o'quv holatlariga tatbiq qilish, oraliq nazorat natijalariga ko'ra mavzu yoki bo'lim bo'yicha axborot to'plash, to'plangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida talabalar erishgan yutuqlarni tahlil qilish, talabalarning bilim va malakasi, ijodiy faoliyat tajribasidagi kamchiliklarini ko'rsatish, guruhdagi har bir talabaga yakuniy

nazoratgacha bajariladigan qo‘shimcha topshiriqlarni berish va uni o‘quv materialini atroflicha o‘zlashtirishga rag‘batlantiriladi;

- yakuniy nazoratning asosiy vazifasi talabalarning ma’lumot va ta’lim mazmuni elementlarini etalon darajasida o‘zlashtirishlarini aniqlash va etalon darajasidan past o‘zlashtirgan talabalar ogohlantirilib, ularga qo‘shimcha topshiriqlar beriladi.

*Zamonaviy ta’lim maqsadini aniq o‘rnatishdan boshlab to uning natijalarini baholashgacha bo‘lgan bosqichlarning har biri uchun ijodiy faoliyatni talab etadi. Pedagog axborotlar to‘plash va uni pedagogik tahlil qilish faoliyatining texnologiyalanuvchanlik darajasini prof. N.Sayidahmedov quyidagi mezonlar asosida alohida ajratib ko‘rsatgan:*



3.6 – rasm




Yuqorida berilgan ko'rsatkichlar loyihalangan o'quv jarayonining texnologik darajasini to'liq ifodalaydi, amalda joriy etilishi esa pedagogni yuqori malakali mutaxassisga aylantiradi, talabaning nufuzini ham birmuncha oshiradi va ijodiy faoliyatni rivojlantirishning yangi qirralarini ochadi. Zamonaviy *Pedagog axborotlar to'plash va uni pedagogik* tahlil qilib borish, loyihalashtiruvchi vositalarning eng zarurini tanlash metodlarining maqsadga muvofiqligini aniqlay bilish (ta'lim metodlari), olinishi zarur bo'lgan natijani oldindan tahlil qilish (maqsadlarning amalga oshishiga erishish), o'quv jarayonining yaxlitligini ta'minlash kabi tamoyillarga asoslanadi.

Bugungi kunda AT jamiyatimiz rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. AT insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lgan. Zamonaviy axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, AT barcha mavjud texnologiyalar, xususan yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'ringa ega.

Axborot texnologiyasi va texnik vositalar samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish ZPTning asosiy belgilaridan biridir. Milliy dasturda ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning bu muhim vositasiga alohida urg'u berilgan.

**Axborotli vositalar (kompyuter, elektron aloqa, radio, televideniye) dan foydalanish darajasi ikki omil bilan aniqlanadi:**




3.7 – rasm

Axborotli ta'lim jarayoni oldindan pedagogik loyihalangandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. PJni kompyuterlashtirish asosiy yo'nalishlardan biri va ZPTning shug'ullanishi lozim bo'lgan sohasidir.

AT – bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan ma'lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnik vositalaridir. Shuningdek, AT deganda, ma'lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi. Agar texnologik zanjirni tashkil etuvchi jarayonlar, ular orasidagi axborot almashinuvini tashkil etish va ularni uyg'unlashtirishda kompyuterlardan foydalanish imkoniyati yaratilsa, har qanday texnologiyaning samaradorligi ortadi. Albatta, buning uchun mazkur texnologiyani sinchiklab o'rganish, jarayonlardagi va ular o'rtasidagi axborot almashinuvini, shuningdek, jarayonlar zanjirini (ya'ni texnologiyani) boshqarishning axborot ta'minotini tahlil etish zaruriyati paydo bo'ladi.


**Hozirgi zamon ATning asosini quyidagi uchta texnika yutug'i tashkil etadi:**



3.8 – rasm

AT, birinchidan, axborotning sirkulyatsiyasi va ishlov berish majmuyi, ikkinchidan, bu jarayonlarning tasviridir.

## AT ta'lim jarayonida muhim o'rin tutib, quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

		
individual qobiliyatlarini talabalarning ochish, saqlash va rivojlantirish, ularda bilim ko'nikmalarini, o'zini o'zi kamolotga etkazishga intilishni shakllantirish;	voqea va hodisalarni kompleks o'rganishni, aniq, tabiiy-ilmiy, texnikaviy, ijtimoiy, gumanitar fanlar va san'at orasidagi o'zaro bog'liqlikning chambarchasligini ta'minlash;	o'quv-tarbiya jarayonlarining mazmun, shakl va metodlarini doimiy tarzda va dinamik ravishda yangilash.

3.9 – rasm


### Ta'lim tizimi nuqtayi nazaridan ATning joriy etilishi bilan birga yuzaga keladigan quyidagi muammolar muhimdir:

1. Texnik muammolar – ta'lim tizimida foydalaniladigan elektronhisoblash va mikroprotssessor texnikasiga qo'yiladigan talablarni, ularni amalda qo'llash xususiyatlarini belgilaydi.

2. Dasturiy muammolar – ta'lim tizimida foydalanish uchun dastur ta'minotining tarkibi va turlarini, ularning qo'llanish tarkibi va xususiyatlarini belgilaydi.

3. Tayyorgarlik muammolari – o'qituvchi (pedagog) va talabalarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shu jumladan, hisoblash texnikasidan foydalanish uquvi bilan bog'liq.

## Ta'lim jarayonida ATni amalga oshirilishi quyidagilarning mavjud bo'lishini taqozo etadi:



3.10 – rasm

Keyingi vaqtlarda «o'qitishning kompyuter texnologiyalari» tushunchasi tarqalib, bunda kompyuterlar bazasida amalga oshirilgan o'qitish texnologiyalari tushuniladi.

Bugungi kunda ta'limni axborotlashtirishda asosiy yo'nalish turli o'quv fanlari bo'yicha pedagogik dastur vositalarini yaratishdan iborat bo'lib qoldi. Ammo mavjud va ishlab chiqilayotgan kompyuter texnikasi bazasidagi pedagogik dastur vositalari o'qitish nuqtayi nazaridan ta'lim sifatida muhim siljishlarga olib kelishi mumkin. Buning sabablaridan biri – kompyuter texnologiyalari an'anaviy tashkil etilgan o'qitish jarayonida joriy etila boshlanganligidir. U o'zining asosiy mazmuni va metodlari bo'yicha bu texnologiyalarga yo'naltirilmagan va ularga ehtiyoj ham yo'q.

Ta'lim texnologiyalari doimo axborotli bo'lgan, chunki ular turli xil axborotni saqlash, uzatish, foydalanuvchilarga yetkazish bilan bog'liq edi. Kompyuter texnikasi va kommunikatsiya vositalari paydo bo'lishi bilan o'qitish texnologiyalari tubdan o'zgardi.

### Nazorat savollari

1. O'quv muassasasini ichki boshqaruvi tizimida axborotlar to'plash tartibi.
2. Pedagogik nashrlarda pedagog faoliyatini baholash
3. Ta'lim texnologiyasi dars jarayonida qo'llashning samaradorligi.

## TEST

---

1. Avtobiografik xarakterga ega hujjatlar to‘plami, individual papka qanday nomlanadi?

- a) test;
- b) portfolio;
- c) sillabus;
- d) assesment.

2. Talabaning individual ta'limiy muvaffaqiyatlari aks ettiruvchi diplom, faxriy yorliq, guvohnoma va boshqalar jamlanadigan portfolio qanday nomlanadi?

- a) baholovchi portfolio;
- b) natijalar portfoliosi;
- c) ishlar portfoliosi;
- d) hujjatlar portfoliosi.

3. Talaba tomonidan bajarilgan ijodiy ishlar, loyihalar, tadqiqotlar, ularning natijalarini aks ettiruvchi reyting daftarchasi, ijodiy ish daftari, elektron hujjatlar, modellar, loyihalar, ijtimoiy, ishlab chiqarish, pedagogik amaliyotga doir hisobotlar, talaba tomonidan mustaqil yoki guruhdoshlar bilan hamkorlikda to‘plagan adabiyotlar, davriy nashrlarning kseronusxalari, illyustratsiyalar joy oladigan portfolio – bu ...

- a) baholovchi portfolio;
- b) taqriz portfoliosi;
- c) ishlar portfoliosi;
- d) hujjatlar portfoliosi.

4. Talabaning o‘zi yoki pedagoglar tomonidan jamlangan talabalarning eng yaxshi ishlari o‘rin oladigan portfolio qanday nomlanadi?

- a) baholovchi portfolio;
- b) taqrizlar portfoliosi;
- c) ishlar portfoliosi;
- d) hujjatlar portfoliosi.

5. Talabaning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish maqsadida shakllantirilib, nazorat ishlari, testlar, chizmalar, krossvordlar va boshqalardan tarkib topadigan portfolio – bu

- a) baholovchi portfolio;
- b) natijalar portfoliosi;
- c) taqrizlar portfoliosi;
- d) On-line portfolio.

6. Talaba tomonidan erishgan yutuqlarni baholashga doir xulosa, taqriz, rezyume, esse, tavsiyanoma va tavsifnomalar jamlanadigan portfolio qanday nomlanadi?

- a) baholovchi portfolio;
- b) natijalar portfoliosi;
- c) taqrizlar portfoliosi;
- d) On-line portfolio.

7. 1) talabalar tomonidan oliy ta'lim muassasasi yoki fakultet saytiga materiallarni qo‘shish; 2) shaxsiy veb-saytlarni yaratish; 3) semestr yakunlari bo‘yicha hisobot tayyorlash kabi shakllarda namoyon bo‘ladigan portfolio – bu ...

- a) baholovchi portfolio;
- b) natijalar portfoliosi;
- c) taqrizlar portfoliosi;
- d) On-line portfolio.

8. Istiqbolli ish o‘rniga ega bo‘lish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, fan olipiadalarda ishtirok etish, nomdor hamda Prezident stipendiyasiga talabgor bo‘lish hamda shaxsiy maqsadlarni amalga oshirishda amaliy ahamiyat kasb etuvchi hujjatlar to‘plami qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) pedagoglar portfoliosi;
- b) talabalar portfoliosi;
- c) rahbarlar portfoliosi;
- d) ekspertlar portfoliosi.

9. Talabalar portfoliosining yaratilishi necha bosqichda amalga oshadi?

- a) 2 bosqichda;

- b) 3 bosqichda;
- c) 4 bosqichda;
- d) 5 bosqichda.

10. Lugʻaviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi qanday ma'noni ifodalaydi?

- a) oʻzgartirish kiritish;
- b) qoʻshimcha kiritish;
- c) yangilik kiritish;
- d) taklif kiritish.

11. Muayyan tizimning ichki tuzilishini oʻzgartirishga qaratilgan faoliyat qanday nomlanadi?

- a) innovatsiya;
- b) novatsiya;
- c) gravitatsiya;
- d) gradatsiya.

12. Yangi gʻoyalar, tizim yoki faoliyat yoʻnalishini oʻzgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan'anaviy yondashuvlar, odatiy boʻlmagan tashabbuslar, ilgʻor ish uslublari. Ular nimaning koʻrinishlari sanaladi?

- a) texnologiyaning;
- b) metodikaning;
- c) innovatsiyaning;
- d) loyihalashning.

13. Ta'lim sohasi yoki oʻquv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qoʻllanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar qanday nomlanadi?

- a) ta'lim vositalari;
- b) ta'lim texnologiyalari;
- c) ta'lim metodlari;
- d) ta'lim innovatsiyalari.

14. “Innovatsion ta'lim” tushunchasi dastlab qaerda asoslangan?

- a) 1919 yilda Berlinda;

- b) 1979 yilda Rimda;
- c) 1920 yilda Vashingtonda;
- d) 1995 yilda Moskvada.

15. Ta'lim innovatsiyalari necha turga bo'linadi?

- a) 2 turga;
- b) 4 turga;
- c) 6 turga;
- d) 8 turga.

16. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra ta'lim innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?

- a) tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari;
- b) radikal, modifikatsiyalangan va kombinatsiyalangan innovatsiyalar;
- c) jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar;
- d) pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

17. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra ta'lim innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?

- a) tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari;
- b) radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar;
- c) jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar;
- d) pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

18. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra ta'lim innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?

- a) tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari;
- b) radikal, modifikatsiyalangan va kombinatsiyalangan innovatsiyalar;
- c) jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar;
- d) pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.



19. Kelib chiqish manbaiga ko'ra ta'lim innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?

- a) tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari;
- b) radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar;
- c) jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar;
- d) pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

20. Faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmay, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u nima deb yuritiladi?

- a) novatsiya;
- b) evrika;
- c) innovatsiya;
- d) intuitsiya.

## GLOSSARIY



Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
<b>Algoritm</b> <b>Algorithm</b>	Modul ta'limi tarkibiy bo‘laklarining o‘zaro joylashishi hamda texnologik jarayonni amalga oshirish ketmaketligining avvaldan belgilangan tartib-qoidolari	Rules initially established to realize an interposition of parts of module education and sequence of technological process
<b>Aralash model</b> <b>Mixed model</b>	Masofaviy ta'limning turli shakllari, bir necha shakllarning integratsiyasiga asoslangan model	Model based on various forms distance learning and integration of some forms
<b>Aralash o‘qitish</b> <b>Blended learning</b>	Onlayn o‘quv materiallari hamda o‘qituvchi rahbarligida guruhda ta'lim olishga asoslangan o‘qitish shakli	A form of teaching based on a group learning under the supervision of a teacher using online study materials
<b>“Assesment” texnologiyasi</b> <b>“Assessment technology”</b>	Talabalarining bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to‘plami	A set of assignments intended for comprehensive assessment of skill and competence level of students
<b>Axborotli loyihalar</b> <b>Information projects</b>	O‘quv jarayonini tashkil etish yoki boshqa ta'limiy xarakterga ega buyurtmalarni bajarish maqsadida nazariy axborotlarni yig‘ishga yo‘naltirilgan loyihalar	Projects intended for collecting theoretical information aiming at realization of scientific projects or organization of educational process

<b>Validatsiya Validation</b>	Ta'lim mahsuloti, ta'lim xizmatlari yoki ta'lim tizimi iste'molchilari ehtiyojlarining qondirilishi	Satisfaction of interests of customers in educational and service system
<b>Vebinar texnologiya Webinar technology</b>	Web texnologiyalar asosi (onlayn tadbirlar va ta'lim vositalari yordami)da tashkil etiladigan seminar, konferensiya, bahs-munozara, uchrashuv, taqdimot, trening, turli voqeya yoki hodisalar bo'yicha Internet tarmog'i orqali tashkil etiladigan to'g'ridan to'g'ri uzatiladigan lavha (translyasiya)lar	Broadcasting organized via Internet transmitting live seminars, conferences, debates, presentations, negotiations, meetings, trainings, various events with the help of Web technologies
<b>Dars ishlanmasi Lesson planning</b>	Ta'limiy mazmunga ega loyiha va o'qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo'lgan hujjat	An obligatory document completed by a teacher and a project that has educational essence
<b>Dasturiy ta'lim Program education</b>	1) o'qitishning talaba, talabalar ehtiyoji, qiziqishi, bilimi, dunyoqarashi, ular tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirishda duch kelish	1) education organized considering interests and needs, outlook of students, problems that appear in assimilation of study materials by students, and opportunities of the
	ehtimoli bo'lgan muammolar, o'quv fanining imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim; 2) pedagogik texnologiyalaridan biri	academic subject; 2) one of the pedagogical technologies

<b>Dramatik o‘yinlar</b> <b>Dramatic games</b>	Psixologik hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishga yo‘naltirilgan o‘yinlar	Games intended for solving psychologic and social issues
<b>Didaktik o‘yinlar</b> <b>Didactic games</b>	O‘rganilayotgan ob'ekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida talabalarning bilishga bo‘lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o‘quv faoliyati turi	A type of a study activity that increases activeness, interest of students in getting knowledge based on the modeling of processes, events, objects that are being studied
<b>Ijodiy loyihalar</b> <b>Creative projects</b>	Indiviuual yoki hamkorlik asosida ijodiy xarakterga ega yangi ta'lim mahsulotlari (ijodiy hisobot, ko‘rgazma, dizayn, videofilm, nashr ishlari – kitob, almanax, buklet, albom, bosma va elektron jurnal, kompyuter dasturlari kabilar)ni yaratishga yo‘naltirilgan loyihalar	The projects intended to creat new educational products (activity report, exhibition, design, videofilm, publishing works: books, literary miscellany, pamphlets, albums, printed and electronic journals, computer programmes) that have creative characteristics based on cooperation and individual activity
<b>Imitatsion o‘yinlar</b> <b>Imitation games</b>	Ishlab chiqarish korxonalari, ish o‘rinlari, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitatsiyalash (taqlid qilish, ko‘chirish) asosida talabalarni muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga samarali	Activities aimed at effective preparing students for certain activities based on imitation of activity carried out by employees of organizations, companies, factories

	tayyorlashga yo‘naltiradigan o‘yinlar	
<b>Invigilator</b> <b>Invigilator</b>	Masofaviy ta'lim asosida tashkil etiladigan o‘qitish natijalarini nazorat qiluvchi mutaxassis-pedagog	A specialist-pedagog who controls the results of teaching in the frames of distance learning
<b>Individual ta'lim</b> <b>Individual education</b>	Ta'lim jarayonida o‘qituvchining faqatgina bir nafar talaba bilan yoki talabaning ta'lim vositalari (adabiyotlar, kompyuter, televidenie, radio va b. axborot texnologiyalar) bilano‘zaro hamkorligi asosida o‘quv materiallarining o‘zlashtirilishini ta'minlashga yo‘naltirilgan ta'lim	Education aimed at developing of mastering skills of a student in cooperatuion with a single student or educational means (literature, computer, television, redio, etc.) during educational process
<b>Innovatsion ta'lim</b> <b>Innovative education</b>	Talabada yangi g‘oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim	Education that allows to develop skills and qualities f a student
<b>Innovatsion faoliyat</b> <b>Innovative activity</b>	Yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g‘oyalarning mavjud g‘oyalarni inkor etishi natijasida vujudga	An activity carried out for solving a set of problems that occur as a result of rejecting new developing ideas or inappropriateness of new social requirements to traditional standards

	keladigan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat	
<b>Innovatsiya Innovation</b>	Muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat	An activity aimed at changing the internal structure of a certain system
<b>Interfaol ta'lim Interactive aducation</b>	Talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim	The education based on organization of interaction in mastering by students certain moral qualities, skills and knodlegde
<b>Ishbilarmonli k o'yinlari  Business games</b>	Ma'lum faoliyat, jarayon yoki munosabatlar mazmunini yoritish, ularni samarali, to'g'ri, oqilona uyushtirishga doir ko'nikma, malaka va sifatlarni o'zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan o'yinlar	Activities organized in order to master skills in running a certain activity, process or relationships and their effective and proper organization
<b>“Keys-stadi” texnologiyasi “Case study” technology</b>	Muammoli vaziyat; talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya	A technology that forms skills in earching for proper variants by analizing created or authentic dilemma (problematic situation) or problems

<p><b>Kompyuter ta'limi</b></p> <p><b>Computer education</b></p>	<p>Talabalarning o'qish, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini nazorat qilishni o'z ichiga oladigan bilish faoliyatini boshqarishda pedagogning axborotlarni to'plash va uzatishdan iborat faoliyatining modeli sifatida kompyuter texnikasi, telekommunikatsiya vositalari hamda dasturiy-metodik ta'minot asosida tashkil etiladigan ta'lim</p>	<p>The education organized based on the computer technologies, telecommunication means and programme and methodological provision as an activity model of a pedagog that comprises collecting and transferring information in controlling the activity of an independent education and selfcontrol of students</p>
<p><b>Kompyuter ta'limi texnologiyalari</b></p> <p><b>Computer education technologies</b></p>	<p>Talabalarning o'qish, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini nazorat qilishni o'z ichiga oladigan bilish faoliyatini boshqarishda pedagogning</p>	<p>A set of forms, means and methods of education organized based on the computer technologies, telecommunication means and programme and methodological</p>
<p><b>education technologies</b></p>	<p>axborotlarni to'plash va uzatishdan iborat faoliyatining modeli sifatida kompyuter texnikasi, telekommunikatsiya vositalari hamda dasturiy-metodik ta'minot asosida tashkil etiladigan ta'limning shakl, metod va vositalari majmui</p>	<p>provision as an activity model of a pedagog that comprises collecting and transferring information in controlling the activity of an independent education and selfcontrol of students</p>
<p><b>Konsorsium Consortium</b></p>	<p>Masofaviy ta'limni tashkil etuvchi ikki universitetdan iborat birlashma</p>	<p>A union of two universities that organize a distance learning</p>

<p><b>Loyihalash</b> <b>Projecting</b></p>	<p>Boshlang‘ich ma'lumotlar, aniq belgilangan vaqt, maxsus tanlangan shakl, metod va vositalarga tayanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali avvaldan faoliyat modelini tuzish, faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat</p>	<p>An action aimed at developing the essence of an activity or process, activity model by assuming, predicting, planning an expected result based on the initial information, specifically chosen form, method and means</p>
<p><b>Loyiha</b> <b>Project</b></p>	<p>Aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli</p>	<p>A result of an action aimed at developing the essence of pedagogical activity based on a certain plan, aim and by guaranteeing its effectiveness</p>
<p><b>Loyiha metodi</b> <b>A method of project</b></p>	<p>O‘quv jarayonini individuallashtirish, talabaning o‘zini mustaqil namoyon qilishini rejalashtirish, o‘z faoliyatini oqilona tashkillashtirish va nazorat qilish imkoniyatini beradigan ta'lim metodlari majmui</p>	<p>A set of educational methods that allow individualization of educational process, independent planning of students' performance, control and proper organization of an activity</p>
<p><b>Loyiha ta'limi</b> <b>A study of project</b></p>	<p>Ta'limiy xarakterdagi aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ta'lim</p>	<p>Education aimed at developing the essence of pedagogical activity by guaranteeing the effectiveness of a plan and aim that have educational characteristics</p>



<b>Masofaviy ta'lim</b> <b>Distance learning</b>	Muayyan nuqtadan axborotkommunikatsiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televidenie va b.) yordamida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'limiy mahsulotlarni tarqatish va yetkazib berishdai an'anaviy hamda innovatsion shakl, metod, vositalarga	Education aimed at using study resources based on innovational form, method and means in organizing study services, expanding and delivering study products with the help of certain information communication means (video, audio, computer, multimedia, radio, television, etc.)
	asoslangan holda ta'lim resurslaridan foydalanishga yo'naltirilgan ta'lim	
<b>Masofaviy ta'lim Texnologiyalari</b> <b>Distance learning technologies</b>	Ta'limning belgilangan mazmun asosida amalga oshirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan shakl, metod va vositalar majmuasidir	A set of forms, methods and means used for increasing effectiveness of education and educational process
<b>Mahorat darslari</b> <b>Master classes</b>	Ochiq tashkil etilib, ilg'or pedagogik tajribalarni targ'ib etishga yo'naltirilgan samarali o'qitish shakli	An effective form of teaching organized to spread progressive pedagogical experiences
<b>Moderator</b> <b>Moderator</b>	Masofaviy ta'lim negizida tashkil etilayotgan seminar, trening, davra suhbat va forumlarga boshchilik qiluvchi (boshqaruvchi) pedagog	A gedagog leading seminars, trainings, debates and forums organized in the frames of distance learning
<b>Modellash-tirish</b>	Hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to'la yorituvchi	Developing a model that discloses principal essence of an event,

<b>Modeling</b>	modelni yaratish	process and system
<b>Model</b> <b>Model</b>	Real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi	A simplified or lessened copy of a real and authentic object
<b>Moder-nizatsiya</b> <b>Moder-nization</b>	Ob'ektning yangi talablar va me'yorlar, texnik ko'rsatmalar, sifat ko'rsatkichlariga mos ravishda yangilanishi	Renewal of the object according to the new requirements, quality indicators and technical regulations
<b>Modul</b> <b>Module</b>	1) tizim ichidagi o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat tugun; 2) muayyan texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi atama; 3) o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi	1) units that consists of interrelated elements in the system; 2) notion meaning parts that create a certain technology; 3) logically completed units of study materials
<b>Modul ta'limi</b> <b>A study of module</b>	O'quv jarayonini tashkil etishning muayyan shakli bo'lib, unga ko'ra o'quv materiali mantiqiy tugallangan birliklari – modullarga asoslangan holda ma'lum bosqich va qadamlar asosida o'zlashtiriladi	A certain form of organization of educational process, according to which the logically completed units of study materials are mastered based on the certain stages and steps
<b>Muammoli vaziyat</b> <b>Dilemma</b>	Talabalarning ma'lum topshiriqlarni bajarish (masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni	It is a psychological state of a student that is related with tension that occurs during a process of accomplishing the

	anglashi bilan bog‘liq ruhiy holati bo‘lib, u hal	assignments, and it requires to master skills, knowledge for successful and
<b>Muammoli ma'ruza</b> <b>A problem lecture</b>	O‘qituvchi tomonidan talabani muammoli vaziyat, muammoli masalani hal etishga yo‘naltirish orqali unda bilish faoliyatini oshirishga yo‘naltirilgan ma'ruza	A lecture aimed at increasing students’ study activity in solving an issue or dilemma
<b>Muammoli ta'lim</b> <b>Problem education</b>	Talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta'lim	Education aimed at developing students’ competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions
<b>Muammoli ta'lim Texnologiyalari</b> <b>Problem education technologies</b>	talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lim texnologiyalari	The technologies that develop students’ competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions
<b>Muammo Problem</b>	Hal qilinishi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masala	an issue that has practical and theoretical significance and needs to be dealt with or solved

<b>Mustaqil ta'lim</b> <b>Independent learning</b>	OTM talabalarida pedagog rahbarligi va nazorati ostida o'quv hamda mutaxassislik fanlari bo'yicha ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarida egallangan BKMni mustahkamlash, boyitish, ular tomonidan yangi BKMni mustaqil o'zlashtirilishini ta'minlash, ularni kasbiy faoliyatni mustaqil tashkil eta olishga tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim	education aimed at preparing the students of higher educational institutions for independent organization of professional activity, self-mastering and improving skills and competence obtained in lectures, seminars and practical lessons on specialized study subjects under the supervision and control of pedagogs
<b>Novatsiya</b> <b>Novation</b>	Tizimdagi ayrim elementlarnigina o'zgartirishga xizmat qiluvchi faoliyat	An activity that serves to change certain elements in the system
<b>Pedagogik muammo</b> <b>Pedagogical problem</b>	Hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma'lum bo'lgan pedagogik xarakterdagi masala	A pedagogical issue that must be solved but has uncertain ways of solution
<b>"Portfolio"</b>	Avtobiografik xarakterga ega	A set of autobiographical
<b>Portfolio</b>	hujjatlar to'plami	documents
<b>Repetitorlik ta'limi</b> <b>Tutoring</b>	Individual ta'limning eng ommalashgan zamonaviy turi	A modern type of popular individual learning
<b>Rivojlanish</b> <b>Development</b>	Shaxsning fiziologik hamda intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi	A complicated process of qualitative and quantitative changes in individual's physiological and

	murakkab jarayon	intellectual development
<b>Rivojlantiruvchi ta'lim</b> <b>Developing education</b>	Talabalarning ichki imkoniyatlari rivojlantirish va ularni to'la ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at revealing and developing students' inner capacities
<b>Rolli o'yinlar</b> <b>Role-playing games</b>	Ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holati, xatti-harakatlar mohiyatini ochib berishga yo'naltirilgan o'yinlar	Activities that allow to explore the psychological state and actions of an individual when accomplishing the assignments and obligations
<b>Syujetli o'yinlar</b> <b>Plot games</b>	Pedagogik voqyelik, hodisalar bayonining muayyan izchilligi va unda ishtirok etayotgan shaxslar faoliyatining o'zaro bog'liqligiga asoslangan o'yinlar	Activities that are organized based on the interrelation of activities of individuals who participate in pedagogical situations
<b>Tadqiqot loyihalari</b> <b>Projects of research works</b>	Ilmiy izlanish xarakteriga ega loyihalar	Projects that have scientific study characteristics
<b>Ta'lim jarayonini Loyihalashtirish</b> <b>Projecting the educational process</b>	O'qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkillashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo'lgan mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi	A targeted educational activity organized in order to develop students' skills in carrying out independent actions to plan and organize activities and its assessment

	maxsus tashkil etilgan maqsadli o‘quv faoliyati	
<b>Ta'lim innovatsiyalari</b> <b>Educational innovations</b>	Ta'lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar	Forms, methods and technologies that are used for innovative solutions to existing problems in learning process or educational sphere and that guarantee effective results
<b>Tayanch konspekt</b> <b>Reference conspect</b>	Nazariy o‘quv material (axboroti)ni grafikli tasvir (qisqa xulosa, tushuntiruvchi surat, shartli ramz, sxema, javal, grafik chizma va b.)da ifodalovchi konspekt	A conspect about theoretical learning materials (information) depicted with graphic pictures (brief conclusion, explaining pictures, signs, schemes, charts)
<b>Ta'lim tizimini Modernizatsiyalash</b> <b>Modernization of educational system</b>	Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, jamiyat va davlatning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olish bo‘lgan talabini qondirish yo‘lida uzluksiz ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishi	Improving or developing an existing mechanism in order to provide sustainable development of continuous educational system that meets students' needs and interests as well as society's social, economic and cultural and country's skilled personal needs

<b>Texnologik model (pasport)</b>	Ta'lim yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirning asosiy ko'rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat	A document that reveals main indicators of education or spiritual and educational events and their technological characteristics
<b>Technological model (passport)</b>		
<b>Texnologik xarita</b>	Ta'lim jarayonni bajaruvchi yoki ma'lum ob'ektga texnik xizmat ko'rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan hujjat	A document that comprises all necessary information that is represented to pedagogues that lead educational process or those who carry out technical services to a certain object
<b>Technological map</b>		
<b>Tyutor</b>	O'quv kurslari uchun interfaol metodlarni tanlovchi, ma'ruza o'qituvchisi bilan talaba o'rtasida ta'limiy aloqani o'rnatuvchi ustoz, murabbiy	A teacher, coach who uses interactive methods for courses and establishes learning communication between a student and lecturer
<b>Tutor</b>		
<b>Uzoqlashtirilgan auditoriyalar</b>	Bir oliy o'quv yurtida tashkil etilayotgan o'quv kurslari, ma'ruza va seminarlarning undan uzoq masofada joylashgan ta'lim muassasalarining o'quv auditoriyalariga telekommunikatsiya vositalari orqali sinxron teleko'rsatuv, videoanjuman va radio eshittirish ko'rinishida uzatilishi	A transmission of courses, lectures and seminars to classrooms or lecture halls in remote places organized in universities (colleges) via telecommunication means in the form of synchronous TV or radio programs, video forums
<b>Distant auditoriums</b>		

<b>Fasilitator</b> <b>Facilitator</b>	Masofaviy ta'lim xizmatidan foydalanayotgan guruhlarning faoliyatini natijasini muammoning ilmiy yechimini topishga yo'naltiruvchi, guruhlarda yuzaga keladigan muloqotni rivojlantiruvchi, shuningdek, guruhlar faoliyatini xolis, samarali baholovchi pedagog	A teacher who helps to search for scientific solutions to the problem of the results of activities of groups that use distance learning services, and who develops communication occurring in groups, effectively and objectively assesses activity of groups
<b>Franchayzing</b>	O'zaro hamkor	Rights that are given by partner
<b>Franchising</b>	universitetlarning birbirlariga o'zlari tomonidan tashkil etiladigan masofaviy ta'lim kurslarini tashkil etish huquqining berishi	universities to other universities for carrying out distance learning courses
<b>Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim</b> <b>Student-centered education</b>	Talabani fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at developing particular characteristics and abilities and personality of a student by considering his thinking and action strategies
<b>Shaxsni rivojlantirish</b> <b>Developing an individual</b>	Individu vaqt nuqtai nazaridan jismoniy va ruhiy o'zgarishlarning sodir bo'lish jarayoni	A process of occurring physical and psychological changes in an individual
<b>O'yin</b> <b>Game</b>	Kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash	An important type of individual's activity and a form or method of mastering by imitating the relationships by children



	(ko‘chirish, taqlid qilish) asosida o‘zlashtirish shakli	
<b>O‘yin texnologiyalar i (o‘yin ta’limi)</b>  <b>Game technologies (game learning)</b>	Ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri	One of the types of education (pedagogical technologies) aimed at creating a process of emotional and assessment activity as well as skills and competence that are the forms of mastering various social experiences by a student

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

---



1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi tog‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son farmoni. Toshkent.-2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
3. Mirziyoev Sh.M. erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birga barpo etamiz.-Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
4. Omonov H.T., Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. – T.: Iqtisod moliya, 2009. – B. 240.
5. Yo‘ldoshev J.G‘., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. – B. 715.
6. Tojiboyeva D., Yuldashev A. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. – T.: Fan va texnologiyalar, 2010. – B. 423.
7. Поулсен, С. Введение в современную методику преподавания.
8. Перевод с датского языка. – Бишкек: Кесип, 2007. - 279 С.
9. Сеитхалилов Э.А., Рахимов Б.Х. Педагогический словарь – справочник. – Т.: Ориент – Лигхт, 2011. 458 с.
10. Морева. Основы педагогического мастерства. Теоритические аспекты. – Москва: Владос – Пресс, 2006. – 347 с.
11. Морева. Основы педагогического мастерства. Практические аспекты. – Москва: Владос – Пресс, 2006. – 274 с.
12. Azizxo‘jayeva N.N. PT va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2003.
13. Bahriyev A., Bahriyeva N. Yangi PT orqali o‘qitishda ichki motivatsiyani shakllantirish. / – T.: “Xalq ta’limi” jurnali, 2006, № 6. 2528- b.
14. Jumayev A. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy faollik omillari./ – T.: “Xalq ta’limi” jurnali, 2006, № 6. 17-20-b.
15. Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: Изд-во Института профессионального образования Министерства образования России, 1995.

16. Оманов Х.Т., Ну’монов Б.О. Принцип историзма в процессе преподавания неограниченной химии.// – Т.: «Xalq ta’limi» jurnali. № 5 , 2011. 107-109-b.
17. Оманов Х.Т. Философско-методологические проблемы современной химии и их отражение в содержании химического образования.// «Uzluksiz ta’lim» jurnali. №1, 2012. 47-51-b.
18. Og‘ayev S. Yangi PT – hayotiy ehtiyoj. / “Xalq ta’limi” jurnali, 2001 , № 3. 69-71-b.
19. Педагогика профессионального образования. Под ред. В.А. Сластенина. – М.: Академия, 2004.
20. Питюков В.Ю. Основные педагогической технологии. – М.: Гном-Пресс, 1999.
21. Rasulov R., Husanov N., Mo‘yudinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. O‘quv qo‘llanma. – Т.: Iqtisod-moliya, 2006.
22. Sayidahmedov N. Yangi PT. – Т.: Moliya, 2003.
23. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 1998.
24. Tolipova J., Numonova N. Ta’lim-tarbiya jarayonida ZPT. / – Т.: “Xalq ta’limi” jurnali, 2002, № 3. 20-24-b.
25. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. PT asoslari./ Т.: O‘qituvchi, 2004.
26. Xo‘jayev N.X., Xodiyev B.Y., Baubekova G.D., Tilabova N.T. Yangi PT. O‘quv qo‘llanma. – Т.: Fan, 2002.
27. Qudratov R. O‘quv faoliyati – ijtimoiy hodisa. / “Xalq ta’limi” jurnali, 2002, № 4. 58-61-b.

#### **Internet resurslari**

1. <http://elkutubhona.narod.uz>
2. <http://uz.ref.uz>
3. <http://uz.ref.uz/search.php>
4. <http://ref.uz>
5. <http://macromedia.com>
6. [www.tuit.uz](http://www.tuit.uz)
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
8. [www.multimedia.com](http://www.multimedia.com)
9. [www.tuit.uz](http://www.tuit.uz)
10. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
11. [www.multimedia.com](http://www.multimedia.com)

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1 - BOB. “TA’LIM TIZIMINI BOSHQARISH” FANINIG NAZARIY ASOSALRI.....	5
1.1. O‘zbekistonda ta’lim tizimi va uni tuzilishi.....	5
1.2. Ta’lim tarbiya jarayonini boshqarish .....	20
1.3. Boshqarish usullari .....	29
1.4. O‘quv muassasasini boshqarishning pedagogik asoslari .....	34
II – BOB. O‘QUV TARBIYA ISHLARIGA RAHBARLIK QILISHNI REJALASHTIRSH VA TA’LIM JARAYONIGA TADBIQ ETISH.....	39
2.1. Ichki boshqaruvning tashkiliy- pedagogik yo‘nalishlari .....	39
2.2. O‘quv tarbiya ishlariga rahbarlik .....	48
2.3. O‘quv muassasi ishini rejalashtirsh.....	55
III – BOB. O‘QUV MUASSASALAR PEDAGOG XODIMLAR FAOLIYATINI O‘RGANISH, ICHKI BOSHQARUVI TIZIMIDA NAZORAT OLIB BORISH.....	62
3.1. O‘quv muassasalarini pedagog xodimlar bilan ta'minlash va ularning malakasini oshirish ishlariga rahbarlik qilish.....	62
3.2. O‘quv muassasasini ichki boshqaruv tizimida axborotlar to‘plash va uni pedagogik tahlil qilish .....	66
TEST .....	76
GLOSSARIY .....	81
ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	97

T.E.DELOV,  
D.A. ZARIPOVA,  
G.R.HAMRAYEVA

# TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH

(O'quv qo'llanma)

**Toshkent – «Aloqachi» – 2020**

Muharrir: Q.Matqurbonov  
Tex. muharrir: A.Tog'ayev  
Musavvir: B.Esanov  
Musahhiha: G.Tog'ayeva  
Kompyuterda  
sahifalovchi: B.Berdimurodov

Nashr.lits. AI №176. 11.06.11.  
Bosishga ruxsat etildi: 16.03.2020. Bichimi 60x841 /16.  
Shartli bosma tabog'i 6,75. Nashr bosma tabog'i 6,25.  
Adadi 100. Buyurtma № .

«Nihol print» Ok da chop etildi.  
Toshkent sh., M. Ashrafiy ko'chasi, 99/101.